

**Ernazarova G.O. Chudakova V.P.
Yakubova M.Y. Oblaqulov Sh. D.**

**KREATIV
PEDAGOGIKA ASOSLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIOLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KREATIV PEDAGOGIKA ASOSLARI

O'quv qo'llanma

Mualliflar:

Ermazarova Gulnora Oblaqulovna
Chudakova Vera Petrovna
Yakubova Marhabo Yusufovna,
Oblaqulov Sherli Davronovich

Toshkent-2023

«Nazokathon ziyo print»

UO'K 37.0;159.9;001

KBK 74.2;88

E-35

**Ernazarova G. O., Chudakova V. P., Yakubova M.Y., Oblaqulov Sh. D./
Kreativ pedagogika asoslari / O'quv qo'llanma.** - Toshkent: «Nazokathon ziyo
print», 2023. – 170 bet.

Ushbu o'quv qo'llanma kreativ pedagogika fanidan ilmiy-amaliy bilim, konikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan, magistraturaning 5A110902 – Pedagogika va psixologiya yo'naliishi talabalari tanlov fani uchun mo'ljallangan bo'lib, undan pedagogika fanlari o'qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, bakalavriatning pedagogika yo'naliislari talabalari ham foydalanshlari mumkin.

Данное учебное пособие посвящено вопросам формирования и развития научно-практических знаний, умений и навыков по дисциплине креативная педагогика, предназначено для конкурсной дисциплины студентов направления 5A110902 – Педагогика и психология магистратуры и может быть использовано преподавателями педагогических наук, слушателями курсов повышения квалификации, студентами педагогических направлений бакалавриата.

This training manual is devoted to the formation and development of scientific-practical knowledge, conics and skills in the field of creative pedagogy, 5A110902 – pedagogical and psychological direction of the master's degree students are designed for the subject of choice, it can also be used by teachers of Pedagogical Sciences, listeners of the course of professional development, students of pedagogical directions of

Mulliflar: p.f.d., prof. **G.O.Ernazarova**- Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Umumiy pedagogika" kafedrasi professori, p.f.d.

Chudakova Vera Petrovna –PhD, Ukraina milliy pedagogik fanlar akademiyasi pedagogika instituti bosh ilmiy xodimi


Yakubova Marhabo Yusufovna, Oblaqulov Sherali Davronovich - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, ilmiy-tadqiqotchilari

Taqrizchilar: p.f.d.,prof. **X.Ibraimov** Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktori

p.f.d.,prof. **Ximmataliyev D.O.** CDPUning "Pedagogika va menegment" kafedrasi professori

ISBN 978-9943-8977-4-8

© Ernazarova G. va b., 2023
© «Nazokathon ziyo print», 2023



Kirish

"Kreativ pedagogika asoslari" fanimagistratura talabalarini kreativ pedagogikaning nazariy asoslari, tamoyillari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar bilan tanishtiradi.Ularda o'quv va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar jarayonini, talabalarning pedagogik ilmiy-tadqiqot fiooliyatlarini samarali tashkil etishga nisbatan kreativ yondashish malakalarni rivojlantiradi.

Mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv topshiriqlari turlarini belgilash, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini hamda o'quv fanlari bo'yicha sinov topshiriqlarini tayyorlashga kreativ yondashish ko'nikmalarini shakllantirish,mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quvmaterialini tayyorlay olish, mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan o'quv materialining vizual xususiyat kasb etishiga erishish, keyslar va darajali testlar to'plamini shakllantirish borasidagi ko'nikmalarining malakaga aylanishini ta'minlash kabilar kreativ pedagogika asoslari kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi.

"Kreativ pedagogika asoslari" mazmunida "Kreativlik" va "Kreativ pedagogika" tushunchalarining mohiyati, kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti, tarkibiy tuzilmasi va muhim kategoriyalari, ilmiy tadqiqot metodlari, pedagoglarning kreativlik sifatlari, kreativlik imkoniyatlari va malakalari, pedagoglar kreativ imkoniyatining muhim darajalari va ularni aniqlovchi mezonlar; pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yollari va shartlari, pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash shakllari, metod va vositalari, pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari, metod va vositalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishipedagogik kreativlik sifatlarini egallashi ko'zda tutilgan.

1-modul: Kreativ pedagogikaning umumiy asoslari

Mavzu.“Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati va pedagogik kreativlikning dolzarbligi

Reja:

- 1.“Kreativlik” va “Kreativ pedagogika” tushunchalarining mohiyati
- 2.Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
- 3.Kreativpedagogikaningtarkibiyuzilmasivaasosiy kategoriyalari.
- 4.Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 5.Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.

Tayanch tushunchalar: *kreativlik, pedagogika, “Kreativ pedagogika” fani, fanning maqsadi, fanning vazifalari, fanning ob'ekti, fanning predmeti, fanning tarkibiy tuzilmasi, fanning asosiy kategoriyalari, Kreativ pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ilmiy- tadqiqot metodlari.*

Mamlakatimizda mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizga kasb sirlarini egallashi, sog'lom raqobatga asoslangan mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun zamin yaratishni bugun zamonning o'zi talab qilmoqda. Davlat dasturi hamda boshqa huquqiy-me'yoriy manbalarda mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish uzlusiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'limiylar ustuvor yo'naliшlaridan biri sifatida e'tirof etilayotganligini yana bir bor tasdiqladi. Ta'lim jarayoni o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlanishiga hamda o'z-o'zini kasbiy va shaxsiy shakllantirish davri hisoblanadi. Kasbiy ta'liming mazkur davrida bo'lajak mutaxassis kasbiy, intelektual, kreativ va innovatsion shakllanish bosqichlarida faol sube'kt sifatida ishtirok etadi va o'z imkoniyatlarini amalga oshiradi. Shu orqali unda tanlagan kasbiy faoliyatiga nisbatan qadriyatli yo'naliganlik, ongi motivatsiya va biliш faolligi rivojlanib, zaruriy kasbiy tayyorgarlik shakllanib

boradi. Mavjud holat bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtaсидagi interaktiv hamkorlikni va mustaqil – ijodiy munosabatlarni talab qiladi.

O'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror topirishga bo'lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

Kreativ pedagogika asoslari pedagogika fani, umumiy va kasbiy pedagogika hamda pedagogik psixologiya, ta'lim texnologiyasi kabi fanlarning metodologik g'oyalariga tayanadi.

“Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart- sharoitni yaratishga xizmit qiladi.

Shaxsnинг mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi.

Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi.

Ijodkor shaxsnинг shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'garishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzlusizlik, vorislylikni taqozo etadigan faoliyat bilan bog'liq.

Kreativ shaxsnинг shakllanishini shaxsnинг ma'lun yo'naliшda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi deb atash mumkin. Ushbu jarayon:

- biologik va ijtimoiy omillar,
- shaxsnинг faolligi va kreativ sifatlari,
- mayjud shart-sharoit,
- hayotiy va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonini anglash uchun avvalo, "Kreativlik" tushunchasining ma'nosi haqida to'xtalib o'tamiz:

Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "Kreativlik – o'z qiyamatiga ega original g'oyalalar majmui" sanaladi.

Gardner esa o'z tadqiqotlarida ushbu tushunchani shunday izohlaydi: **"Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshirilaigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiyamatga ega bo'lishi lozim".**

Emebayl esa, **"Kreativlik- muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish"** demakdir deb fikr yuritadi.


Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra, "Kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash" sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharhash mumkin:

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individvning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida ijodkorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

S.M. Godninning ishlariда talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagi larni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahlil olish,

qiyinchiliklarni a'lo darajada yenga bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli, funktsiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish.



Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosi sini bildiradi.

Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qibiliyati tushuniladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsnинг o'z-o'zini bosqarishi va o'zini-o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish talabarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi. O'qituvchinining innovation faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va kreativ faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nafaqta, gullagan, yetuk, yeng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. B.G. Anatol'ev, V.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish uchun yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risi fikr yuritadilar. Ular yetuk

insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlar, professionalizmga yetishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug'ullaniganlar. V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'luming sifatini, sub'ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: iste'dod nishonalar; o'quvlilik; qobiliyat; iste'dod; oila tarbiyasi sharoiti; o'quv yurti; o'z xattisharakatlari.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriylar farqlanadi:

ijodiy individuallik; o'zining o'sish va takomillashish jarayoni; o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining kreativ individualligi quyidagilardan iborat: intellektual-kreativ tashabbus;

bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati; ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati; axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka vayangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik.

V.A.Slastenin kreativ individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi: ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish; pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish; samarali va ahamiyatli me'yorlarni belgilaydigan yangi pedagogik texnologiyalarni topish; shaxsnинг o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash kabilari.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga yerishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

fikrning ravonligi; fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi; o'ziga xoslik (originallik);

qiziquvchanlik; farazlar yaratish qobiliyati; xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individuarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon-natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa sub'ekt-shartlilik tavsifidan foydalanadi [4,5].

D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning ucta bosqichini ajratadi:

- * shaxsnинг bu bosqichga, unga tashqaridan berilgan vazifalarini tashabbussiz qabul qilish xarakterlidir;

- * intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom yetadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanai;

- * intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.

Rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:potentsial kreativlik; faoliyatdagi kreativlik.

Potentsial kreativlik N.M.Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individuumning potentsial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potentsial kreativlik ijodning zaruriy subektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik-faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individuumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning yeng muhim subektiv shartidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A.Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka taqlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik taqlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda taqlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydi.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsyanomalar, yo'riqnomalar amaliyotga ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani va amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiysi va metodikasi yaratiladi.

Demak, o'qituvchining individual kreativ qobiliyatini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi. Individual kreativ qobiliyatni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlar to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivqilanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'mini anglay olish kabilari. Kadrlar tayyorlashda innovatsion, progressiv ta'lif, akmeologik omillarni inobatga

olib, unda shaxsga individual, insonparvarlik tamoyillari asosida yondashuvni, bu narsa o'z navbatida o'quvchilardagi professional mahoratni o'stirishni nazarda tutadi. Bu vazifalarning amalda ruyobga chiqishi har bir shaxsning taraqqiyot davrlariga mos ravishda rivojlanishi va mehnatining mahsulorligiga erishishni ta'minlaydi, shaxsning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi.

Ko'plab tadqiqotlarda **intellekt** va **kreativlik** o'ttasidagi aloqadorlik xususida turliqa qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'tasida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar.




Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his- tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "Talabalar e'tiborini ta'lif jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mayjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular Ye.P.Torrens tomonidan asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga

egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim.

Ta'lif tizimini boshqarish organlari har yili ta'lif muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'aintilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilishqobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.



"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1.O'quvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalg'eb etish;
- 2.O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini

rag'batlanirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lif jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Muallif tomonidan tavsiya qilingan vosita va strategiyalar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda o'qituvchilar uchun qo'l keladi hamda talabalarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishni rivojlantiradi.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishiuning kreativligi qay daraja ekanligiga bog'liq bo'ladi. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "Pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Respublikamizda ta'lif-tarbiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta'lif muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lif oluvchilarning faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirilgan pedagogik eksperimentlarni loyihalash, tashkil etish va o'tkazishning zamonaviy shakl va metodlaridan keng foydalilmoxoda. Shuningdek, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bugungi zamon talablari asosida ta'lif tizimini isloh qilish, pedagogika sohasida ilg'or innovatsiyalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishi va ularni keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli bo'lajak mutaxassislarning pedagogik muammolarni qiyosiy taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining optimal variantlarini tanlash asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish orqali pedagogning kreativlik potentsiali darajasini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oly ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oly ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyatga joriy etish zaruratini shakllantiradi.


Ta'limga modernizatsiyalashdan maqsad ta'lim taraqqiyotini ta'minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- davlat tomonidan to'liq ta'lim olish huquqini ta'minlanishi;
- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash;
- ta'limming xuquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;
- pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag'batlanish;
- ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini keng joriy etish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtaсидagi konsorsiumni rivojlantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning kreativ ko'nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi.

Kreativlik so'zi (inglizcha "kreate" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod

darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.



Kreativ o'qituvchi bo'lish – bugungi ta'limi faoliyatda fzallikkarga ega bo'lish, boshqa o'qituvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhabatdosh bo'lish, ta'limda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g'oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo'llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o'rinn tutadi.

2-mavzu. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari

Reja:

- 1.O'qituvchining kreativligi, kreativlikning tarkibiy komponentlari
- 2.Pedagogning kreativ potentsiali va uning namoyon bo'lishi
- 3.Bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillari
- 4.Kreativlikni rivojlanishning pedagogik shart-sharoitlari

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quydagilarni amalga oshiriladi:

1. O'qituvchilarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiq etish;
2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladiagan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;

4. Eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish. Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Kreativlik tushunchasi (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqatdan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdir.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya vapedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagisegzilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilishdarjasи deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab toppish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quydagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratsh imkon beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);

3. Motivatsion (maqsadiy);

4. Emotsional (his hayajonli).


Kreativ layoqat quyudagi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan qismlardan iboratbo'ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo'nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o'z-o'zini boshqarish;
7. Kreativ faoliyk;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O'qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

K.Rodgers "Ijod-o'z o'zini kuchaytirish demakdir" degan asarida ijodiy shaxsuchun eng asosiy savollardan birini beradi: "Meni meni hayot tarzim qoniqtiradimiyoki to'g'ri talqin etadimi. O'qituvchining ushbu savolga javobi uning kasbiy vajodiy cho'qqilarga intilishi yuqori ijodoy malakali va o'zini ijodiy tomondan to'lanamoish etishga intilishi kreativ shaxs bo'lishi".

Shunday qilib kreativlik o'qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rindan uni o'zini faoliigi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.



1-rasm. Pedagogik kreativlikning asosiy shakllari

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobji hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'imasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'lai (1-rasm).

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkiletishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalar;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalar;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalar;
- 6) tashkilotchilik malakalar;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;
- 8) texnik-texnologik malakalar

Pedagogning kreativlik potensiali.

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordiyu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. O'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi.

O'qituvchining darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda o'qituvchi "Kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagи harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi:

- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- talabalarni o'quv fanlari qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;
- innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- kutiladigan natija.

Kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiyl xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi.



Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiyl xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qibiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

Pedagogning kreativ potensiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;

- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladiva u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisdabo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini-o'zi ijodiy faoliyatgayo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdag'i ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarini qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishslash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Muammoli tamoyili.

Muammoli tamoyilidan foydalanish pedagogik faoliyat uchun yangilik emas. Kreativlikning mohiyati muammoli xarakterga ega bo'lib, u muammoning nostandard yechimini topishdan iborat. Pedagogik amaliyotda bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini muammolilik tamoyiliga muvofiq rivojlantirish ijodiy muammoli vazifalarda namoyon bo'ladi, masalan, "Gipotezani ilgari suring va uni sinab ko'rish rejasini tuzing ...", "Dastlabki natijani baholash ...", "O'quv materialini boshqacha taqdim eting ..." va hokazo.

2. Ijodiy yo'nalish tamoyili.

Bu tamoyil nafaqa treproduktiv, balki ijodiy faoliyat ko'nigmalarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Kreativlikni rivojlantirish faqat maqsadli xarakterga ega bo'lmasligi kerak, ya'niki erishilayotgan natija amaliyot so'ngida natijaga erishish degan fikrdan yiroq bo'lishi lozim. Bu holatda talaba topshiriqlarni tez va hech qanday hissiyotlarsiz bajarishlari kerak. Chunki bu holat mashg'ulot sifatiga, diagnostika natijalariga, umuman, barcha tajriba-sinov ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar kreativlikning rivojlanishi bosqichli xususiyatga egabo'lib, har bir vazifa yoki faoliyat turi sinovning keying bosqichi sifatida qaralmasdan, balki o'z-o'zini sinab ko'rish, o'zini o'zi anglash va qiziqarli faoliyat uchun imkoniyat sifatida yo'naltirilgan bo'lsa, u holda bajarilayotgan ish yuqori sifatlari va o'rganilayotgan konsepsiya ko'rsatkichlari o'sish darajasida bo'ladi.

3. Butunlilik va izchillik tamoyili.

Bu tamoyil ijodkorlikni rivojlantirish dasturi tuzilmasi yaxlitlilik, izchillik, to'hlililikni talab qiladi. Faqat shu holatda qo'yilgan maqsadga erishish uchun vosita va usullarni tanlashning maqsadga muvofiqligi haqida gapirish mumkin. Kreativlikni bo'lajak o'qituvchining yaxlit qiyofasiga hamroh bo'ladiyan sifatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim.

4. Individuallashtirish tamoyili.

Ushbu tamoyilning asosiy jihatni har bir talabaning individual tarbiyaviy ish uslubini, uning shaxsiy rivojlanishining o'ziga xos trayektoriyasini va ruhiy jarayonlarning ishslash xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Shunda dasturning har bir ishtirokchisining individual natijasi, shaxsiy xususiyatlar sifatida kreativlikning shakllanish darajasiga mos keladigan ijodiy yutug'i bo'ladi.

Kreativlikning rivojlantirishning bosh maqsadi bu o'quvchilarning aqliy fikrlyatlari va mantiqiy fikrlashini rivojalntirishdan iborat. Buning uchun biz talaba erishgan rivojlanish darajasiga emas, balki bir oz oldinroq qadam tashlab, uning fikrlash qobiliyatidan biroz yuqoriroq bo'lgan talablarni qo'yishimiz kerak. Shuningdek kreativlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
2. Nostandard vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish;
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish;
5. Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish uchun zarur bo'lgan fikrlash xususiyatlarini rivojlantirish.

Shu bilan birgalikda pedagogik kreativlikni rivojlantirish sharti o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda insonparvarlik psixologiya tamoyillarini amalga oshirishdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Har bir talabaning g'oyasini yuqori baholash, bu barcha g'oyalar va javoblarni ijobjiy mustahkamlash, xatodan tanish narsaga yangicha qarash imkoniyati sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

2. O'zaro ishonch, psixologik xavfsizlik muhitini yaratish.

3. Tanlash va qaror qabul qilishda mustaqillikni ta'minlash.

Kreativ salohiyatga ega o'qituvchi quyidagi **sifatlarga** ega bo'ladi:

Kreativ fikrlashi kengayadi;

Tadqiqot ko'nkmalarini yaxshi egallaydi;

Pedagogikayokimaxsusfanyutuqlaridanhamdailg'ortajribalardanfoydalanishimk oniyatlarininmustaqiltahlilqiladi;

Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirot etadi.

Kreativ fikrlaydigan o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablar shundan iboratki, u o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda muvofiqlashtiruvchi, boshqaruvchi, muloqot tashkilotchisi, maslahatchisi bo'lishi kerak. O'qituvchi bilimlarni o'zlashtirishning eng samarali usullarini izlashni qo'llab-quvvatlaydi va boshqaradi, qiziqarli kashfiyotlarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyasiz urinishlarni tahlil qiladi, o'quvchilarni mag'lubiyat va g'alabalarni amalga oshirishga undaydi.

Demak, kreativlikni rivojlantirishning pedagogic shart-sharoitlari sinfda maqsadli ravishda yaratilgan ijodiy tarbiyaviy muhitga bog'liq bo'lishi mumkin; o'qituvchining ijodiy xulq-atvori namunasining mavjudligi va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ifodalovchi sifatida o'qituvchining shaxsiyati;

talabalar va o'qituvchilarning birqalikda yaratilishi; ijodiy faoliyatdagि sub'ektiv o'rni;

ijodiy muhitni saqlash va muvaffaqiyat holatlarini yaratish.

Talabalar ijodining eng samarali rivojlanishi ijodiy ta'limganing uzluksiz tizimi sharoitida maqsadli, har tomonlama pedagogic ta'sir ko'rsatish orqali ta'minlanadi.

Bu va boshqa masalalarni ishlab chiqish bilan fundamental amaliy pedagogika sohasi sifatida kreativ pedagogika shug'ullanishi lozim.

Shuningdek nostandrt fikrlovchi, qiyin vaziyatlarda xotirjam, muammoning yechimini topishda bir tomonlama emas, turli tomonlama yondashadigan salohiyatli mutaxassislarni yetishtirishdan iborat.

Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'zligaxoslik);

ularni kengaytirish (ishlab chiqish);

yoki boshqa g'oyalalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik) talabetilganda, mazkur ko'nkmalar bir-biri bilan kesishadi.

Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'lli ko'rsatilgan:

Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish;

Amaliy kreativ harakat ko'nkmalarini rivojlantirish

Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;

Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi.

Nazorat savollari:

1."Kreativlik" va "Kreativ pedagogika" tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.

2.Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti nima?

3.Kreativpedagogikaningtarkibiyuzilmasivaasosiy kategoriyalarini tushuntiring

4.Kreativ pedagogikaning boshqa qaysi fanlar bilan aloqador?

5.Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini aytib bering.

6.O'qituvchining kreativligi, kreativlikning tarkibiy komponentlarini tushuntiring

7. Pedagogning kreativ potentsiali va uning namoyon bo'lishi nimaga bog'liq?
8. Bo'lajak o'qituvchining pedagogik amaliyat davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini aytib bering
9. Kreativlikni rivojlantirishning qanday zaruriy pedagogik shart-sharoitlarini bilasiz?

2-modul. Kreativ pedagogikaning nazariy asoslari

Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti

Reja:

1. Kreativlikka oid tadqiqotchilarning fikrlari va uning dolzarbliги
2. Kreativ pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti
3. Kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va asosiy kategoriyalari
4. "Kreativ pedagogika"ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Tayanch tushunchalar: *Kreativlik, kreativ pedagogika, tadqiqotchilar, dolzarblik, kreativ salohiyat, pedagog kadr, kasbiy faoliyat, nazariy tushunchalar*

Kreativ pedagogikaning natijaviyligi, kreativ o'quvchilarni tarbiyalaydigan kreativ o'quv jarayoni -an'anaviy maktab tomonidan ishlab chiqarilganlarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi.

Kreativ pedagogikaning afzalliklari:

- * Kreativ pedagogika o'quvchilarga bir xillikdan xalos bo'lishga yordam beradi: har bir talaba nostandard vaziyatga tushib qoladi va o'zini noma'lum tomonidan isbotlay oladi.
- * Kreativ pedagogika talabalarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

* Kreativ pedagogika fikrlash, mantiqni rivojlantiradi, ta'lim oluvchilarni mulohaza yuritishga, qaror qabul qilishga va o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishga o'rgatadi.

* Kreativ pedagogika ta'lim oluvchilarga bir-biri bilan aloqa o'matishga, jamoada ishlashni o'rganishga yordam beradi, ta'lim oluvchilar o'tasidagi nizolarning yanashni oldini oladi.

Pedagog kadrlarni zamonaviy bilimlarning yetkazuvchisi, yaratuvchisisifatida tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida ularning kreativ salohiyatni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Kreativlikka oid tadqiqotlar asoschisi D.Gilford muammolarning samarali yechimi mavjud intellektual testlar bilan o'chanadigan bilim va malakalarga emas, balki tezkor ravishda turli usullar bilan vazifani hal qilish uchun taqdim qilingan asborotni qo'llashga bo'lgan individual qobiliyatga bog'liqligini isbotladi. Bunday o'ziga xoslik esa kreativlik deb nomlandi.


D.Gilford va Ye.Torrans kreativ tafakkurning o'ziga xosliklarini tavsiflovchi 16 ta intellektual qobiliyatni ajratib ko'rsatdi. Ular orasida tezkorlik, uddaburonlik, qiziquvchanlik va mantiqiy fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyinroq D.Gilford mazkur qobiliyatlarni turli yo'nalishlarda sodir bo'ladigan va muammoni hal qilish yo'llarini tasniflashlashga imkon beradigan "**Divergent tafakkur**" nomi ostida umumlashtirdi.

Konvergent fikrlash esa faqat bitta to'g'ri yechimni tanlash uchun barcha mavjud vazifalarni tahlil qilishga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi.

Konvergent fikrlash oldindan ma'lum bo'lgan muammoning sodda yechimiga yo'naltirilgan bo'lsa, **divergent fikrlash** muammo oldindan taklif qilingan, uning yechimini izlab topishning aniq belgilangan usuli yo'qligida namoyon bo'ladi.

Konvergent fikrlash shaxs intellektini, divergent fikrlash esa kreativlikni belgilashga xizmat qiladi.



S.Sipremenning ta'kidlashicha, kreativlik bu inson aql kuchining yuqori darajasidir, u mayjud aloqadorliklarni o'zgartirish va yaratish orqali yangi mazmunni tarkib toptiradi. V.Simpson esa uni umumi qabul qilingan, tafakkur jarayonida g'oyalarga amal qilishning odatiy tartibini buzishga qodirlik, deb izohladi.

Ye.Torrans kreativlik – bu maxsus emas, balki umumi intellektning konstellyatsiyasi, sermahsul tafakkurga xos shaxsiy tavsif va qobiliyatlarga asoslangan umumi qobiliyat, deb hisoblagan.

V.N.Petrova, A.N.Petrovning ta'kidlashicha, kreativlik – bu hayratlanish, g'ayriodatiy vaziyatda yechim topish, yangilikka intilish, shaxsiy tajribani chuqur anglashga bo'lgan qobiliyat. Turli nuqtai nazarlarga qaramay, deyarli barcha ta'riflarda kreativlik (shaxs va jamiyat uchun) yangilik yaratish bilan bog'liq ekanligi anglashiladi.

Kreativ pedagogika – 1) pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiylar hal qillishga bo'lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish;


2) talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijodiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bejarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgarli surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariiga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan.

Kreativ salohiyat pedagog tomonidan yangi metod vausullarni izlash, standartlardan voz kechishga bo'lgan zaruriyatninganglanishi orqali ham shakllanadi. Shu tariqa jamiyat va ta'limg-tarbiya jarayoni maqsadlari ham muammolarni uddaburonlik bilan yechish, o'qitish va tarbiyaviy ishga noodatiy yondashuvlarni talab qiladi.

Talabalarda kreativlik sifat va ko'nikmalarining o'zlashtirilishida "Kreativ pedagogika" muhim o'rinn tutadi. O'qituvchi ta'limg jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko'p foydalansa, o'ziga va o'zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi. "Kreativ pedagogika muayyan vazifalarini bajaradi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1)ta'limg mazmuni, o'quv rejalarini va dasturlarini saralash;
- 2)o'quv moduli (fan)ni o'qitishning taktika va strategiyalarini belgilash;
- 3)mos psixologik-pedagogik tashxis vositalarini tanlash;
- 4)ta'limg oluvchilarning kreativ rivojlanishini bashoratlash;
- 5)kreativ shaxsni shakllantirishning boshqaruvi tizimini ishlab chiqish

Har qanday fan kabi “Kreativ pedagogika” o'quv predmeti ham aniq maqsadni ko'zlaydi. “Kreativ pedagogika” fanining maqsadi shaxsni kreativ o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat. Ma'lumki, har bir fan o'zining tadqiqot ob'ektiva predmetiga ega bo'ladi. “Kreativ pedagogika” ham o'z ob'ektiva predmetiga ega. Ular:



Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi:

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

-oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

-talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishga yordam beruvchi shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;

-mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;

-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-pedagogik bilimlarning amaliyotga tadbiq etishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Kreativ pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va asosiy kategoriyalari

“Kreativ pedagogika” fani quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

- kreativ ta'lim asoslari: maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, sub'ektlari, mazmuni, metodologiyasi, shaklli, metodlari, vositalari, metodikasi va texnologiyalari;

- malakali kadrlarni tayyorlash va ular tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda kreativ shaxsni shakllantirish bosqichlari

Kreativ pedagogikaning umumiyligi uning konceptsual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydalikligini belgilovchi shaxs faoliyatini va uning natijasini

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot) larga ega shaxs

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandard usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs.

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

Ijod – ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruhi tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

Ijodkor shaxs – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish.

Kasbiy-ijodiy faoliyat – mutaxassisning kasbiy masalalarini ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiylovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati

Ijodiy topshiriqlar – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi

Kasbiy-ijodiy imkoniyat –

- 1) kasbiy kompetentsiya, malakaga egalik;
- 2)kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik;
- 3)ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi;
- 4)kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.

Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi – ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'lilot;

Ijodiy tafakkur – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi;

Kreativ qobiliyat – shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati;

Ijodiy qobiliyat – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligi, o'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi, kabilar pedagoglarning kasbiy-ijodiy imkoniyati kasbiy masalalarini ijobjiy hal qilish va ularning yechimini tegishli darajada baholashda ko'rinadi.

"Kreativ pedagogika"ning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Shaxs kamolotini ta'minlash, uning intellektual, ma'nnaviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o'rganiladi.

Shu bilan birga "Kreativ pedagogika" fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda kreativ shaxsning shakllanishi va rivojlanishi masalalarini tadqiq etadi. "Kreativ pedagogika" fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda:

| t/r | Fanlar | Mazmuni |
|------------|---|--|
| 1 | Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti | har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish, unda dunyoqarash va yuksak ma'nnaviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanish fanini, turli davrlarda bola tarbiyasini tashkil etishga oid bilimlarning shakllanishini tadqiq qiladi. |
| 2 | Maktabgacha ta'lim pedagogikasi | maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini tarbiyalash, ularga boshlang'ich bilimlarni berish masalalarining tadqiqi bilan shug'ullanadi. |
| 3 | Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi | boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda |

| | | |
|---|---|--|
| | | ularni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganadi. |
| 4 | Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya | bo'lajak o'qituvchilar, tinglovchilarda pedagogik jarayonni metodik jihatdan to'g'ri, samarali tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari oqilona yo'lga qo'yish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlash, ta'lim va tarbiya jarayonlarini texnologik yondashuv asosida takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish masalalarini o'rganadi. |
| 5 | Korreksion (maxsus) pedagogika | imkoniyati cheklangan kar-soqov (surdopedagogika), ko'r (tiflopedagogika), aqliy jihatdan rivojlanishda ortda qolgan (oligofrenopedagogika) bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. |
| 6 | Xususiy metodika (xususiy fanlari o'qitish) | turli o'quv fanlari (mas., fizika, matematika, biologiya, kimyo, fan, huquq, jismoniy tarbiya va h.o.lar)ni o'qitishning o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiladi. |
| 7 | Kasbiy pedagogika | turli (ijtimoiy, texnik, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish) yo'nalishlarida tegishli soha (mas., qishloq xo'jaligini rivojlantirish, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va boshqalar) bo'yicha kasbiy faoliyatni samarali yo'lga qo'yish yo'llarini o'rganadi. |
| 8 | Ta'lim menejmenti | ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish masalalarini tadqiq qiladi. |
| 9 | Qiyosiy pedagogika | ta'liming jahon, mintqa, davlat miqyosidagi rivojlanishining umumiy va alohida tendentsiyalari, qonunlari va qonuniyatlarini o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganadi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy |

| | | |
|----|--|---|
| | | jihatlarini, milliy pedagogik madaniyatlar almashinuvining shakl va usullarini aniqlaydi. |
| 10 | Pedagogik innovatika | ta'lim sub'ektlari nuqtai nazardan pedagogik innovatsiyalarning mohiyati, paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlarini hamda pedagogik an'analar bilan kelajak ta'liming loyihalashtirilishi o'rtasidagi aloqalarni o'rganadigan fan. |
| 11 | Harbiy pedagogika | harbiy ta'liming o'ziga xos jihatlarini, uni tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalari, ilg'or texnologiyalarini, harbiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish yo'llarini ochib beradi. |
| 12 | Hamkorlik pedagogikasi | turli fanlar yoki mutaxassislik asoslarining ta'lim beruvchi hamda oluvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot asosida samarali o'rganish mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari va vositalarini ko'rsatib beradi. |
| 13 | Neyropedagogika | inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktional) rivojlanish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy hulq- atvorni psixologik korrektsiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishi tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, shuningdek, yangi turdag'i maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi. |
| 14 | Pedagogik texnika | nopedagogik OTM pedagoglarini pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari bilan tanishtirish orqali ularda ta'lim jarayonini sifatli, samarali tashkil etish ko'nikma, malakalarini rivojlanish masalalarini o'rganadi. |
| 15 | Pedagogik kvalimetriya | ta'lim sifatini izchil nazorat qilish va samarali boshqarishga oid muammolarni tadqiq etadi. |
| 16 | Pedagogik jarayonlarning tizimli tahlili | pedagoglarda ta'lim va tarbiya jarayonlarining mohiyatini yaxlit tizim sifatida anglash, turli, shu jumlaan, muammoli vaziyatlarni yaxlit, |

| | | |
|----|--|---|
| | | izchil tahlil qilish malakalarini rivojlantirish muammolarini tadqiq etadi. |
| 17 | Pedagogik prognostika va pedagogikaning istiqbolli yo'nalishlari | mavjud sharoitda pedagogik turkum fanlarni sifatli o'qitish, ta'lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirish muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash, istiqbolli yo'nalishlarini belgilash masalalarini tahlil etadi. |
| 18 | Pedagogik jarayonni boshqarishda qarorlar qabul qilish | pedagoglar tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarining izchil, tizimli, samarali boshqarilishini ta'minlash, mavjud pedagogik vaziyatlarda tizimli tahlil asosida oqilona qarorlar qabul qilinishiga erishish masalalarini o'rganadi. |
| 19 | Falsafa | tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. |
| 20 | Estetika asoslari | nafis san'atni, badiiy ijodiyotni, tabiat va turmushdagi go'zallikning mohiyati, shakllarini, inson va ijtimoiy borliq o'tasidagi qadriyatlar munosabatini o'rganadi. |
| 21 | Psixologiya | inson faoliyati, shaxs xatti-harakatlarida borliqning aks etishini, ruhiy jarayonlar, hodisalar va xislatlarning mohiyatini yoritadi. |

Kreativ pedagogika quyidagi ikkita hodisani kafolatlashi kerak:

1. O'qituvchi tomonidan fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish uchun past natijalarga erishgan talabalarning e'tiborini tortishni tashkil etish.

2.O'quvchilarni kreativ fikrlash va dars davomida ijodiy faoliyatdan foydalanish uchun sharoit yaratish.

o'qituvchi ijodkorligining asosiy shakllari:

- me'yoriy hujjatlarni yuqori darajada tayyorlash;
- o'quv manbalarini noodatiy ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni uchun yangi loyihalarni tayyorlash;

- o'quv ma'lumotlarini va nazorat topshirig'ini qiziqarli, muammoli tusda shakllantirish
- o'quv jarayonini yanada qiziqarli tashkil qilish;
- ilmiy-uslubiy ishlarni ishlab chiqish kabilar.

Mavzu. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

Reja

1. Kreativ pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari bilan tanishish
- 2.Zamonaviy sharoitda "Kreativ pedagogika" tomonidan kreativ shaxsn kasbiy shaklantirish va rivojlantirish yo'lida quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish
3. Pedagogik tajribaning turlari

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlaringin g'oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta'minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

"Kreativ pedagogika" tomonidan kreativ shaxsni kasbiy shaklantirish va rivojlantirish yo'lida quyidagi pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlardan foydalilmoqda.Quyidamazkur metodlarning mohiyati to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi.

1.Suhbat metodi pedagogik kuzatish chog'ida talabaning kreativlikka oid bilimlarini boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

Suhbatning samarali kechishini ta'minlovchi shartlar:
 maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash, savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
 suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
 suhbat ishtirokchilarining sonini aniqlashtirish;
 suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil aya olishi uchun sharoit yaratish;
 7)savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.


Suhbat individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlari to'lla namoyon bo'lishiga erishish muhim.

2.Pedagogik tahlil. Tadqiqotni olib boorish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan shaxs tomonidan kreativlik sifatlari, imkoniyatlari va malakalarining o'zlashtirish darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, pedagog tomonidan ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

3.Pedagogik-psixologik tashxis metodlari. Bu kabi metodlar shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislash hamda baholashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda shaxsning kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalariga egaligini tashxislashda o'nlab metodlar qo'llanilmoqda.

Ular orasida bir guruh metodlar amaliy jihatdan samarali bo'lib, ular rivojlangan xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Gauenaning "Zahiraviy model", Slossontesti, Vekslerov shkalasi. Vekslerov shkalasi ("WPPSI" testi), boshlang'ich maktablar uchun mo'ljallangan Stanford testi hamda Torrens testlari (jumladan, "Tugallanmagan rasmlar" testi) shular jumlasidandir.

4.Pedagogik tajriba (lot. "eksperiment" – "tajriba qilib ko'rish") metodidan muammo yechimini toppish imkoniyatlari o'rganish, mavjud pedagogic sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyatda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalilaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud.



Pedagogik tajribaning turlari

Pedagogik tajribalarni amalga oshirishda asosiy e'tibor ularning samarali kechishiga qaratiladi. Bunda esa bir qator shartlarni inobatga olish lozim. Ya'ni:

Pedagogik tajriba samaradorligini ta'minlovchi shartlar: tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi; tadqiqot ilmiy farazining puxtaasoslanishi; tadqiqot ob'ektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi; tajriba o'tkazilish vaqtini va davomiyligining aniqlanishi; zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi; tajriba ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishslash

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiyl xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

5.Anketa (fr. "tekshirish") metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.

Anketa samaradorligini ta'minlovchi shartlar:

- savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- savollar yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- savollar o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olish asosida tuzilishi zarur; savollarga to'l'a javob qaytarilishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;
- anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylanmasligi zarur.

Metod tizimli savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi.

Ta'lif jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketalar quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar)ga ega;

2) yopiq savollar ("ha", "yo'q", "ijobi", "salbiy" va h.k.)tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar)ga ega anketalar.

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur.

Pedagogikkuzatishmetodida o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtaqidagi farq tahlil qilinadi. PK murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishga qo'yiladigan shartlar: kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik; kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish; kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish; har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish; xulosa chiqarishga shoshilmaslik kabilar.

Pedagogik kvalimetriya ta'lif sifatini nazorat qish va samarali boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Bunda turli darajadagi testlar, muammoli vaziyatlarni hal

qilish asosida shaxsning kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyatni tashkil eta olish ko'nkmalariga egaligi, ularning darajasi o'rganiladi hamda baholanadi.

Talabalar ijodini o'rganish metodi talabalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim ko'nikma va malaka darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiyishlari – ikkivaraqlikundalik, insho, yozmaish, kichikesse, referat, kursishi, bitiruvmalakaviyishlari, pedagogic amaliyot hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Metod ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Ekspert baholash metodi zamонави sharoitda deyarli barcha sohalara olib boriladigan tajribalarda jarayonida qo'llaniladigan va keng ommalashgan ilmiy-taqiqt metodlardan biri sanaladi.

Ko'p holatlarda shaxsda kreativlik sifatlari va ijodiy faoliyat ko'nkmalarining shakllanganlik darjasini aniqlash psixolog, pedagog va bevosita kreativlikka dahldor sohalarning vakillari – malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi.

"Kreativ pedagogika" fanining asoslari talabalar va pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijoiy faoliyat ko'rsatish malakalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Mavzu. Ta'limga ijodiy yondashuv**Reja**

- 1.Ta'limga ijodiy yondashuv - shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni to'l'a amalga oshirishga imkoniyat yaratadi
- 2.Ijodiy fikrlashni rivojlantirish
- 3.O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash mahoratlari darajalari
- 4.Elektron o'quv adabiyoti va ta'lif resurslarning ta'limga ijodiy yondashuvdagi ahamiyati

Zamonaviy pedagogikada “Kreativ pedagogika” tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lindi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika fani, umumiyligi va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lif texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi.

Shaxsnинг mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi.

Ijodkor shaxsnинг shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi – tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzuksizlik, vorisyilikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsnинг faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalshtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lif olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama

fikrlash talabalardan o'quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvehi ijodiy qobiliyatidir.

Shaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsn yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, talabalar e'tiborini ta'lif jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi.

O'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy va kreativlik qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab va ko'p qirrali. Shuning uchun ta'lif oluvchilarning ilmiy nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning milliy hunarmandchilikka va o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish murakkab jarayon sanaladi. Buning uchun, fanini o'qitishda kreativ xarakterga ega mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirib, ularni yanada ko'proq harakat qilishga undaydi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiylovchi qobiliyatini belgilaydi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yadi. Buning sababli ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodlar talabalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Demak, "Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1.O'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalg etish;

2. O'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

"Kreativ pedagogika" fani bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

O'qituvchining professional kompetentligi kreativlik bilantavsiflanadi. Kreativlik – kasbda ishlash usuli, yangi pedagogik borliqni yaratish istagi va

kotnikmasi. Professional-kompetent pedagog refleksiyaga qodir bo'lishi lozim. Refleksiya - fikrlashning alohida usuli. U pedagogik jarayonga hamda o'z shaxsiga muayyan kasb egasi sifatida chetdan nazar tashlashni ko'zda tutadi.

Ta'limga ijodiy yondashuv - shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni to'la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Xorijiy pedagoglar va psixologlar: D.Gilrord, Ye.Torrans, L.Termen,R.Sternberg, M.Vollax, Rossiyalik olimlar V.Dashlova, P.Gal'perin, V.Kalnikova, D.Bogoyavlenskiy, T.Kulikova va boshqalar tomonidan ijodiy fikrlash nazariy jihatdan asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqishda yo'naltirilgan tadqiqotlar davom etmoqda.

D.B.Bogoyavlenskaya fikricha, ijodiy ish - muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ijodiy faoliyk deganda hodisalar, jarayonlar, ob'ektlar shamiyatini tushungan holda, qiyinchiliklarni yoki muammoni yengishga intilish tushuniladi. Ya'ni shaxsning kasbiy faoliyati bo'yicha yangi yechimlarni izlash va topish hamda natijalaridan qoniqish tushuniladi.

Ijodiy faoliykn shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma-bosqich hal qilinadigan muammodir.

Shaxs faoliigli turli, ya'ni o'quv ilmiy ishlab chiqarish, ijodiy faoliyatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlantiriladi.

Psixolog olim S.L.Rubinshteynning fikricha, ijodiy faoliyat jarayonida kishida asta-sekin ishning qaysi joyini, nimani o'zgartirish, yaxshilash, takomillashtirish masalasini o'ylash tamoyili vujudga keladi.

Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, mo'ljallangan yechim umumiy tuzilishini fikran tasavvur etish zarurati tug'iladi.

Bu esa, o'z navbatida, xayolning inson miyasining faol ishlashi bilan topilgan yechimlarni hisoblashlarda, chizmalarda, eskizlarni yaratishda, buyumlarni bezash va hokazolarda aniq ifodalashni talab qiladigan o'ziga xos aqliy ish bilan

bog'liqdir. Ijodiy mehnat jarayonida faqat qandaydir buyum yoki yangi narsa yaratilib qolinmay, balki shaxsnинг o'zi kiritgan original xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ijodiy faoliyat, ijodkorlik sifatlari va shaxs xislatlарini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Barcha sohada ijod ish natijasining farqli belgilari, uning yangiligi va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir. Pedagogik entsiklopediyada o'quvchilarining texnik ijodkorligi "Foydali va muhim yangilik belgilariga ega bo'lgan texnik ob'ektlar yaratiladigan faoliyat turidir", deb ta'riflanadi.

Q.Abdullaevaning fikricha texnik ijodkorlikka individual yondashish ta'liming eng muhim printsiplaridan birini amalga oshirish, yuqori darajadagi qiyin ijodiy faoliyatga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin, ana shunday yondashishda o'quvchining ma'naviy kuchi namoyon bo'ladi, mustaqil ijodiy ishda qatnashadigan barcha o'quvchilarining, shu jumladan, eng bo'sh o'quvchilarining ham bilim ham hunarni puxta egallashi uchun haqiqiy sharoit vujudga keladi.

P.I.Pidkasistiy o'quvchining kelajakda butun mehnat faoliyati davomida kasbiy mahoratini o'zi oshirib borishga, mustaqil va ijodiyyondashgan holda muammolarni yechishga o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak.

Ko'pgina pedagoglar va olimlarning insonning qanday qilib ilm o'rganishi haqida ko'pgina turli xil nazariyalar, qarashlari mavjud. Ammo tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ta'lim olish jarayoniga muvofiqlashtirilgan holda bir xil yondashib bo'lmaydi, chunki o'rganish jarayoni har bir inson uchun individualdir.

Shuningdek, ta'lim jarayoni ko'p omillarga, ya'nı ob-havo sharoiti, o'qituvchiga bo'lgan shaxsiy munosabat, o'qishdan tashqari ishlar bilan bandligi, oilaviy sharoit, jismoni holatlarga bog'liq bo'lib bularning barchasi intellektual bilimlar o'quvchining darslarda va darsdan tashqarida faolligi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqi, o'zlashtirish darajasiga ta'sir qilishi mumkin.

N.Muslimov va Sh.Sharipovlar fikricha o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ularning har biriga alohida individual yondashish lozim. Ijodiy

fikrlashni rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri o'quvchilarni turli darajadagi muammoli savollarini yoki topshiriqlarni yechishga jalb etish, ularning yechimlarini mustaqil izlab topishga o'rgatishdan iboratdir. Amaliyotda ijodiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida muammoli savollar yoki topshiriqlardan foydalananish mumkin.

Ijodiy fikrlash insonning tevarak-atrofda bo'layotgan jarayonlar, voqeа va hodisalarga bo'lgan munosabatida turli muammolarni har xil usullar yordamida hal eta olishda namoyon bo'ladi. Faqat fanga oid formula, teorema, hamda ta'riflarni eslab qolish bilan ijodiy qobiliyatini shakllantirib bo'lmaydi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish har bir o'quvchiga alohida yondashish orqali amalga oshiriluvchi jarayondir.

O.Qo'sinov tadqiqot ishlarida o'quvchilarining mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash uchun umumiy o'quv materialidan muhimlarini ajratib olish mahoratini yuqori, o'rta hamda quyi darajalarga ajratiladi va ularga quyidagicha tafsiflab beriladi:

Yuqori daraja - o'rganilayotgan materialning muhim xususiyatini osonva tez ajratib oladi.

O'rta daraja - o'qigan materialdagi muhim xususiyatlarini ajratishni asosan bajara oladi, shu bilan birga bir qancha xatolarga yo'l qo'yadi.

Quyi daraja - materialning muhim xususiyatlarini odatda gapiraolmaydi.

Uning fikricha, ushbu darajalar orqali o'quvchilarining mustaqil vajodiylash faoliyatini rivojlantirish uchun ularning har biriga individual yondashuvni talab etadi.

U.Sodiqov fikriga ko'ra ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim usullaridan biri o'quvchilarni turli darajadagi quyidagi noan'anaviy masalalarini yechishga jalb etish, betakror va o'ziga xos yechimlarni izlab topishga o'rgatishdan iboratdir:

- dastlabki ma'lumotlar yetarli bo'limgan masalalar;
- ortiqcha ma'lumot bilan berilgan masalalar;

- qarama-qarshi yoki xato ma'lumotlar bilan berilgan masalalar;
- savollari noaniq qo'yilgan masalalar;
- yechim vaqt cheklangan masalalar.

Noan'anaviy masalalarning bunday turli darajalar bo'yicha guruhanishida o'quvchilarning psixologik va ijodiy ishlari qobiliyatlarining inobatga olishni nazarda tutadi.

Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishning yetakchi omillaridan biri, o'quvchilarning umumkasbiy va maxsus fanlaridagi biror mahsulotni tayyorlashdagi texnologik faoliyatidir. Bunda texnik fanlar bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustaqil ravishda amalda ongli qo'llaniladi va mahsulotlarni tayyorlashda amaliy ifodasini topadi. Shu tariqa, o'quvchilar faoliyatida jismoniy hamda aqliy mehnatni birlashtirish orqali ularda ijodiy qobiliyat rivojlantirib boriladi.

O'quvchining mustaqil o'quv faoliyatiga nisbatan o'qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo'yilishi ularning mazmunini boyitadi. O'quv topshiriqlar oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda berilishi kerak.

Ijodiy topshiriqlar tarkibiga ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish, turli didaktik o'yinlar kiradi. Agar ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar yangi o'quv holatlariiga tatbiq qilinsa, ijodiy mustaqil ish dalillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash bilan ajralib turadi.

O'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchilarda tashkiliy (o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etish mazmunli-jarayonli (o'quv faoliyatining mazmuni va mohiyatini bilish hamda bu faoliyatni samarali amalga oshirishni belgilovchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish), o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarning shakllanishi mustaqil bilim olishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.O'quvtopshirig'imustaqlibilimolishningtashkiliyshaklisifatibelgilanadivaun gaasoslanib, o'quvtopshiriqlartizimigaqo'yiluvchitalablarishlabchiqiladi.

O'qituvchi o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonlarning o'zaro zid xususiyatlarini aks ettirish uchun muammoli vaziyatdan foydalanilsa, u holda

ob'ektiv muammo o'quv muammosiga aylanadi. O'quvchilar uchun tushunarli bo'lgan muammo o'quv topshirig'i sifatida berilishi lozim.

Mustaqil va ijodiy ishslash uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

- topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga qaratilishi kerak;
- o'quv topshirig'idagi muammoni hal etishda o'quvchilar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko'zda tutadi;
- topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o'rtaсидаги muhim bog'liqlik ko'rsatilishi kerak;
- topshiriqlar yechimini aniqlash va o'quvchilar ongida hodisalar yoki jarayonlar o'rtaсида bog'liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;
- topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchi oddiy tushunchalardan, u hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim;
- topshiriqnini bajarish jarayonida oddiy tushunchalar o'quvchiga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;
- topshiriqnini bajarishda o'quvchi tushunchalarning shakli va mazmunini o'ggartirmasdan hamda o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

O'quvchilarning o'quv-topshiriqlarini bajarish jarayonida dastlabki amallarni bajarish o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi.

Topshiriq yechimlarini tahlil qilish natijasida o'quvchi o'quv topshiriqlarini bajarishning umumiyligi usullarini o'zlashtiradi.

O'quv topshiriqlari murakkablashtirib borilishi kerak. Ijodiy va izlanish xususiyatiga ega bo'lgan iqtidorli o'quvchilar murakkab topshiriqlarni bajarishlari, kamroq tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar topshiriqlarni bajarishlariga qaramasdan, ularga topshiriq yechimini topishi guruh bilan birga ishslashga imkon beradi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash mahoratlarini quyidagi3 ta darajaga ajratish mumkin:

1. O'quvchi muammoni yechish, topshirqlarni bajarish yo'llarini o'zi izlay-di, mustaqil fikrlab, mulohaza yuritadi.

2. O'quvchi berilgan topshiriq yoki vazifani mustaqil bajaradi, ammo ijo-diy yondosholmaydi. Mustaqil holda topshiriqni bajarishda muammolarni hal etadi, ammo natija qanchalik darajada to'g'rilingini kuzatmaydi. Berilgan topshiriq yoki muammoli masalaga o'xshashlarini tuza oladi.

3. Muammoning tayyor yechimlaridan foydalanishga intiladi.

Muammoni yechishda qiyinchilikka duch kelishi bilan yordam so'raydi. Muammoli masalani yoki topshiriqni mustaqil yechishda qobiliyati yetmaydi.

Nazorat savollari:

- 1.“Kreativlik” tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
- 2.“Kreativ pedagogika”ning maqsadi nimadan iborat va u qanday vazifalarni hal qiladi?
- 3.“Kreativ peagogika”ning ob'ekti va predmetini nima tashkil etadi?
- 4.“Kreativ pedagogika”ning asosiy kategoriyalari qaysilar?
- 5.“Kreativ pedagogika” qanay fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi?
- 6.Kreativ shaxsni shakllantirish va rivojlantirishda qanday ilmiy-tadqiqot metodlari qo'llaniladi?
7. Ta'limga ijodiy yondoshishni tushuntiring

3- modul.Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish yo'llari.

Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari

Reja:

- 1.Talabalarda kreativlikni rivojlantirish shartlari.
- 2.Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari.
- 3.Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhtari.

Tayanch tushunchalar: *sifat, kreativlik sifatlari, malaka, ijodiy faoliyatni malakalari, kreativ sifatlarni rivojlantirish yo'llari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, shaxs kreativligini rivojlantirish tamoyillari, pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar, pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari, pedagoglarning kreativlik imkoniyatining muhim darajalari, shaxsning kreativligi darajasini aniqlovchi mezonlar.*

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Pedagogning kreativligi – ta'lim-tarbiya jarayonga ijodiy yondoshuviga aytildi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qibiliyati, xislatini bildiradi.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Shu sababli bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Kreativ tafakkur inson ma'naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur.

Buning uchun bo'lajak pedagoglarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarda istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan'anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya'ni proqnoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirilishi kerak.

Har qanday muammoning yechimi bo'yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko'rsata olish, hamda ularning barchasini o'ziga xos ijobjiy va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko'pchilik o'ylab ko'rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo'llish;

Zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo'nalishlar va yo'llarni ko'ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo'nalishlarini topa bilish kabi noan'anaviy tafakkurga ega bo'llish;

O'z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o'zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirirish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi proqnoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlar uzuksiz ta'lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi kabilar.


J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- hayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

Pedagogning kreativ tafakkuri

Aqlning peshqadamligi;

Tezlikda qaror qabul qilish;
Qarorlarni qabul qilishdan cho'chimaslik;
Ish vazifasi va sohasiga sodiqlik;
Tafakkurning egiluvchanligi;
Noan'anaviylik;
Nostandart qarorlar va yechimlar qabul qilishdan cho'chimaslik;
Istiqbolni ko'rish;
Proqnoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirishiga bog'liq pedagogik jarayondir.



Kreativ tafakkur tizimi

Zamonaviy pedagogikada kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma'lum tizim shakllantirilgan:

1.Analitik tahlil jarayoni- bu tayyorgarlik jarayoni bo'lib, u axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, madjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'satichchlarni taqqoslash jarayoni.

2.Kontsentratsiya jarayoni-ma'lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ularning tizimi, tahlili olib boriladi. Ong faolligining ba'zan ko'tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostonart g'oyalarning tug'ilish va shakllanish jarayoni.

3.G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy kontsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ortiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi va guruhanladi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy – ma'naviy va qadriyatlар nuqtai nazarida nazoratdan o'tkazadi.So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tayyor tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.

4. G'oyalar tahlilini amalga oshirish jarayoni- g'oyalar tahlilini amalga oshirishda, g'oyalar qidirishda, to'lqinli taraqqiyot jarayoni sodir bo'ladi. Inson tafakkurida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ladi, bunda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki u turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Bu vaqtida odam bir mavzudan birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketishi, ba'zi harakatlarni bajarishi mumkin bo'ladi. Bu inson tafakkurida kechayotgan ong oqimlarining faoliyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi sifatida –so'nggi qaror pishib yetiladi.

5.Analiz va sintez jarayoni-kreativ tafakkur faoliyati natijalarni tahlil qilish jarayoni, ya'ni mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda ong oqimida pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiylidka tahlildan o'tkaziladi, hamda kreativ tafakkur mehnatinining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar o'ta murakkab jarayonlar bo'lib, u tezlik bilan amalga oshiriladi. Kreativlik tafakkurni odatdag'i fikrlash yo'lidan ancha

qiziqarli bo'lgan noan'anaviy usullarga olib keladi, shu sababli inson tafakkurida optimal qarorlar vujudga keladi va tug'iladi. Original, unikal, noan'anaviy, optimal qarorlar esa zamonaviy jamiyatni ilg'orlik, taraqqiyot, iqtisodiy takomil sari yetaklovchi kuch hisoblanadi.

Shu boisdan pedagoglarning kreativlikni tarbiyalashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda krreativ tafakkur o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi zarur. Quyida kreativlikni tarbiyalashning ba'zi mezonlarini keltiramiz:

1.O'z tafakkuringizni original, optimal yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga qarating, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zingizni undang;

2. Yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimang;

3. Keng mushohada etishga harakat qiling, an'anaviy bo'lмаган sullardan foydalaniш, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotitlar qobig'idan chiqib ketishga urining, erkin ijodiy mushohada yuriting;

4. Agar birinchi tajribangiz muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribangizdan voz kechmang, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettiring, masala yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qiling, boshqa yo'llarni aqlan qidirib topish davom eting;

5. Disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo'ling, uni o'zingizga qaratilganligiga ishonmang, bahsni to'g'ri tashkil qiling, o'z fikringizni har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib boring;

6.Tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qiling.

7.An'anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz keching, yangi usullarda ishlashga urinib ko'ring

8.Yangi g'oyalardan qo'rwmang, ularni albatta keng qo'llang.

Bugungi kunda dunyo ta'l'im hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta'l'im muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi.

Yoshlarini bilimlarni o'zlashtirishda, ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy kreativ tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur.

Zero, zamonaviy ta'lif taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g'oyalalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o'z o'rnidagi jamiyat taraqqiyoti, xalq forovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Pedagoglarga xos kreativ sifat va ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirib boriladi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1)ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

2)bolalarning mustaqilligini rag'batlantirishva ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3)bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4)bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xosikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniлади. E.P.Torrensning shaxs akreativ sifatlarini namoyon bo'lislari aniqlovchi testlarning turlari mavjud. Ular quyidagilardir:

Testlarning turlari

Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldarlik va b.)ni aniqlovchi testlar
Ijodiy tafakkur va uning natijalari (tezkorlik, samaradorlik, mahsuldarlik va b.)ni aniqlovchi testlar


Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatlarini aniqlovchi testlar
Shaxsning hayotiy tajribasi va shaxsiy sifatlarini aniqlovchi testlar

Pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun talabalar pedagogika oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur: pedagogikaning asosiy g'oyalari, kontseptsiyalari, qonuniyatlarini va pedagogic hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogic faktlarni bilish; ta'lif va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Talabalarda kreativ fikrash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin sinda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lif olayotgan talabalar asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasidakreativ fikrashga moyil bo'ladi.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1)savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
- 2)muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish



Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti talabalarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlesh ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Kreativ tafakkurga ega talabalar:

- boshqa talabalarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi;
- o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi;
- ba'zan mavzu aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi;
- yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi;
- g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi;
- muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi.

| Shaxsga xos kreativlik sifatlaring turlari | |
|--|---|
| 1 | Ijodiy yo'nalganlik |
| 2 | Mantiqiy fikrlesh qobiliyati |
| 3 | Eruditsiya (bilag'onlik) |
| 4 | Boy tasavvurga egalik |
| 5 | Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik |
| 6 | O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyish etish |

| | |
|----|---|
| 7 | Refleksiya qobiliyati |
| 8 | Hissiyotga boylik |
| 9 | Tavakkal qila olish qobiliyati |
| 10 | Tafakkur tezligiga egalik |
| 11 | Ichki sezgining rivojlanganligi |
| 12 | O'ziga xos (orginal) g'oyalarni ilgari sura olish qobiliyati |
| 13 | Innovatsion qobiliyatga egalik |
| 14 | Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik |
| 15 | Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi |

Kreativ jihatdan rivojlanisha har bir shaxs hayotida davr va bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. Demak: Kreativlikning rivojlanish davri – ma'lum kreativlik sifatlarining rivojlanishi yakuniga yetgan qandaydir vaqt birligi.

Kreativlikning rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarining ivojlanganlik darajasi . Shunga ko'ra ma'lum davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatlari, ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Pedagoglar kreativlik sifatlari bilan bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi quyidagi malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruuhlari:

- bilishga oid (gnostik) malakalar;
- loyihalash malakalari;
- ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- tadqiqotchilik malakalari;
- muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalar;
- tashkilotchilik malakalari;
- Quyida ushbu malakalar guruuhlarining mohiyati yoritiladi:
- Bilishga oid (gnostik) malakalar:**

talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash;

zamonaviy ta'limga talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish;

ta'limga tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish;

talabalar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni

o'zlashtirganlik natijalarini, o'quvchilarining tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini aniqlay bilish;

talabalarning bilishga bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va faoliyklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi ishlarni olib borish;

darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish;

talabalar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish;

talabalarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nigmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish;

ta'limga jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalananish;

didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish;

ota-onalarni pedagogik bilimlar asoslari, bolalarning asosiy yosh xususiyatlari, psixologik o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlarni mohiyatidan xabardor qilish;

o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish.

Loyihalash malakalari:

dars yoki tarbiyaviy tadbirlarning loyihalarini yaratish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini yaratish;

dars yoki tarbiyaviy tadbir mohiyatini bosqichma-bosqich yoritish;

ta'limiylar yoki tarbiyaviy faoliyat maqsadini aniq belgilash;

maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlash;

o'quv materialining didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini bayon etish;

o'quv yoki tarbiyaviy xarakterdagi material mazmunini shakllantirish;

o'quv yoki tarbiyaviy material mazmunini ochib beradigan bir qancha ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro izchillikni ta'minlash;

talabalarni mustaqil fikrlashga rag'batlaniruvchi savollar tizimini ishlab chiqish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirning metodik tuzilishini asoslash;

dars yoki tarbiyaviy tadbir jarayonida bajariladigan pedagogik topshiriqlar tizimini aniqlash;

yangi materialni bayon etishda turli zamonaviy yondashuvlarni qo'llash;

muayyan izchillikka ega test topshiriqlarini ishlab chiqish;

talabalarning bilim darajasini tashxislash jarayonini asoslash;

talabalar jamoasi hamda alohida talabaning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholash mexanizmini yaratish.

Ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar:

alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;

o'quv materialini turli rasm, surat, jadval, diagramma, model va boshqalar bilan boyitish;

o'ziga xos, orginal o'quv materialini tayyorlash;

mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;

o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiya tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini yaratish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik pasporti, xaritasini yaratish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun mul'timediya materiallarini yaratish;

o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;

turli mavzularagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida video roliklar yaratish;

dars konспектini tayyorlash;

turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test), baholash mezonlarini ishlab chiqish;

nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

Tadqiqotchilik malakalari:

ilmiy izlanish olib borish metod va vositalarini tanlash;

manbalar bilan ishlash (nazariy tahlil, muhim ma'lumotni topish, tezis, konспект, referat, kartoteka bilan ishlash, adabiyotlar ro'yxatini tuzish);

nashr manbalari va axborot texnologiyalari (Internet) materiallari bilan tanishish;

anketa so'rovini tashkil etish;

zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash, dolzarbligini asoslash; mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini o'rganish;

pedagogik tajriba olib borish metodikasini ishlab chiqish;

uch (yoki to'rt) bosqichli pedagogik tajribani ilmiy-metodik tashkil etish;

ilmiy maqola, axborot va hisobot tayyorlash;

ilmiy maqolalarni nashrga tayyorlash;

pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish;

tahlil natijalarini matematik-statistik tahlil qilish;

statistik tahlil natijalariga ko'ra xulosa chiqarish va ilmiy-tavsiyalarni ilgari surish;

pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikri bildirish, tanqidiy fikrlarni aytishi olish, amaliy takliflar berish).

Tashkilotchilik malakalari:

talabalarning o'quv-bilish faoliyatini boshqarish;

talabalarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;

dars jarayonida vaqtini to'g'ri taqsimlash va rejani samarali bajarish;

talabalar bilan individual ishlarni tashkil etish;

guruh jamoasi bilan jamoaviy yoki guruhli ishlarni olib borish;

talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga rivoja etish ko'nikmalarini shakllantirish;

talabalarga o'quv va ijtimoiy topshiriqlarni berish;

o'quvchilarning diqqatini boshqarish;

talabalar o'rtasida bahs-munozara tashkil etish va uni boshqarish;

darslarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish;

talabalarning o'quv faoliyklarini oshirish, ularning mustaqilligini ta'minlash;

kiechik guruhlarni shakllantirish asosida topshiriqlar bajarilishini ta'minlash;

talabalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni ro'yxatini ishlab chiqish.

Muloqotga kiruvechanlik (kommunikativ) malakalari:

talabalar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl, metodlardan foydalanish;

pedagogik amaliyotning barcha ishtirokchilari bilan amaliy, ishchanlik yoki shaxsiy munosabat o'rnatish;

talabalarga ma'lumotlarni yetkazishning samarali yo'l va vositalarini topish;

topshiriqlar yuzasidan talabaning javobi yoki shaxsiy fikrlarini tinglay bilish;

pedagogik jarayonlarda yuzaga keladigan nizolarningoldini olish, bartaraf etish yoki rivojlantirish;

jamoia va turli bosqichdagi talabalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni mustahkamlash;

jamoada sog'gom raqobatga asoslangan muhitni qaror toptirish;

talabalarning faoliyatlarini rag'batlantirish;
talaba javobidagi xato yoki xatti-harakatidagi kamchiliklarga munosabat bildirish;
talabalar bilan ta'limi hamkorlikka erishish.

Izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar:

o'quv materiali mazmunini bayon qilishda nutqiy izchillikni ta'minlash;
og'zaki va yozma nutqni bayon qilishda o'zaro izchillikni qaror toptirish;
talabalarning mavjud bilimlari bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar o'tasida muayyan izchillikni yuzaga keltirish;
talabalarning mavjud hayotiy qarashlarini yangi g'oyalar bilan boyitish;
darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda talabalarni faol faoliyatga undovchi metodlardan foydalanishda muayyan izchillikka erishish;
talabalar bilim, ko'nikma va malakalari darajasining DTS talablariga muvosiq kelishida ma'lum izchillikka erishish;
guruh jamoasining ijtimoiy-psixologik holatini o'rganish metodlaridan foydalanishda pedagogik faoliyat izchilligini ta'minlash;
talabalarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajasini baholashda doimiy izchillikka erishish.

Texnik-texnologik malakalar:

ta'lim jarayoniga zamonaviy texnik vositalarini tatbiq etish;
dars jarayoni mazmunini texnologik pasport va texnologiya xarita yordamida yoritish;
o'quv materiali mazmunini yorituvchi slaydlarni tayyorlash;
o'quv mashg'ulotlarini axborot texnologiyalari, interfaol metodlar yordamida tashkil etish;
ixtisoslik fani xususiyatidan kelib chiqqan holda turli texnik vositalardan foydalanish;
darslarda proektorni qo'llay olish;
o'quv materiallarini audio va video yozuvlari, taqdimot asosida bayon qilish;

talabalarda o'quv materialini mustahkamlash va o'quv topshiriqlarini berishda axborot texnologiyalarini qo'llash;

komp'yuter imkoniyatlaridan foydalanishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;

talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni elektron asosda tashkil etish;

talabalarning bilim olganlik va tarbiyalanganlik darajalarini tashxis qilishda komp'yuter yordamiga tayanish va b.sh.

Mavzu. Kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari

Reja

- 1.Kreativ tafakkurning ahamiyati
- 2.Kreativ tafakkur tizimi haqida tushuncha
- 3.Kreativlikni tarbiyalashning mezonlari
- 4.Intellektuallikning ahamiyati

Kalit so'zlar: *kreativ tafakkur, intellekt, aqliy salohiyat, kreativ fikrlar, g'oyalar inkubatsiyasi, kontsentratsiya jarayoni, analitik tahlil, analiz va sintez.*

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta'minlash uchun siyomat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi.


Kreativ tafakkur rivojlangan davlatlarni xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida eng quyi bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotida uning takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazaridan pedagogik faoliyatda shunday o'qitishni tashkil etish kerakki, o'quvchi kreativ fikrlovehi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim

rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funktsiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Kreativ tafakkur inson ma'naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidorikabilarni ishlata olish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi.

Demak, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarda istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan'anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya'ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirilishi kerak.

"KREATIV IFODA" - kreativ fikrlash orqali o'zining ichki dunyosini boshqalarga yetkazib berishga tegishli hisoblanadi



Kreativ ifoda ham
2 ga bo'linadi:

- 1) YOZMA IFODA**
- 2) VIZUAL IFODA**

Har qanday muammoning yechimi bo'yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko'rsata olish, hamda ularning barchasini o'ziga xos ijobiylar va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko'pchilik o'ylab ko'rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo'lish;

zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo'nalishlar va yo'llarni ko'ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi

masalalar yechimini yangi yo'nalishlarini topa bilish kabi noan'anaviy tafakkurga ega bo'lish;

o%'z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o'zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi prognoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlar uzluksiz ta'lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog'liq.

Ushbu xususiyatlar ma'ruzalar, pand nasihat yoki ko'satmalar bilan emas, balki yo'nattirish, abstrakt mashqlar va bilimlar asosida, tarbiyalash orqali bilan hossil qilinishi mumkin.

Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan va an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan, batamom yangi usul, yo'l, yonita, yondashuvlarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

Katta keng qamrovli ishlab chiqarish tarmoqlarida o'nlab yoki yuzlab kreativ tafakkurga ega bo'lgan insonlarnig fikrlari, qarashlari va tahlillarni umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish va umumiy yechimga keltirish asosida nostandard qarorlar va yechimlar qabul qilinadi.

Kreativ fikrlar inson ongingin yuqori chegarasidagi va u o'rganmagan fikrlar, noan'anaviy usullar, mavjud holat negizida yangi qarashlar asosida yangicha faoliyatni tashkil etishga qaratilgan mustaqil mushohadalardir.

Insonda ma'lum soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning hamda tarbiyalanganlikning mavjudligi kreativ tafakkurni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi jarayonlar kreativ tafakkur tizimi hisoblanadi:

1. Analitik tahlil jarayoni- bu tayyorgarlik jarayoni bo'lib, u axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, madjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash jarayoni.

2. Kontsentratsiya jarayoni-ma'lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ularning tizimi, tahlili olib boriladi. Aqliy

salohiyat yetishmovchiligi jarayonidan o'tish va mazkur jarayonni bosib o'tishga intilish. Ong faolligining ba'zan ko'tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandart g'oyalarning tug'ilish va shakllanish jarayoni.

3.G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy kontsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ortiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi va guruhlanadi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy –ma'naviy va qadriyatlar nuqtai nazarida nazoratdan o'tkazadi. So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tayyor tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.

4.G'oyalar tahlilini amalga oshirish jarayoni- g'oyalar tahlilini amalga oshirishda, hoyalar qidirishda, to'lqinli taraqqiyot jarayoni sodir bo'ladi. Inson tafakkurida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ladi, bunda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki u turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Bu vaqtida odam bir mavzudan birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketishi, ba'zi harakatlarni bajarishi mumkin bo'ladi. Bu inson tafakkurida kechayotgan ong oqimlarining faoliyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi sifatida –so'nggi qaror pishib yetiladi.

5.Analiz va sintez jarayoni-kreativ tafakkur faoliyati natijalarni tahlil qilish jarayoni, ya'ni mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda ong oqimida pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiylikda tahlildan o'tkaziladi, hamda kreativ tafakkur mehnatining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar o'ta murakkab jarayonlar bo'lib, u tezlik bilan amalga oshiriladi. Kreativlik tafakkurni odatdag'i fikrlash yo'llidan ancha qiziqarli bo'lgan noan'anaviy usullarga olib keladi, shu sababli inson tafakkurida optimal qarorlar vujudga keladi va tug'iladi. Original, unikal, noan'anaviy, optimal qarorlar esa zamonaviy jamiyatni ilg'orlik, taraqqiyot, iqtisodiy takomil sari yetaklovchi kuch hisoblanadi.

Intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik mana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati

hisoblanadi. U inson faoliyatiga ilhom va ijodkorlik kabi xususiyatlarni baxsh etadi.

Intellektuallik – yoshlarning aqliy salohiyatini shakllantirish, ularni zamonaviy jamiyatda yashashga tayyorlashning quyi bosqichi hisoblanadi. Ularni kreativ tafakkurga o'rgatishgina, ularning aqliy salohiyatini ishga sola olish qobiliyati tarbiyalanganligini ko'ssatadi. Ya'ni kreativlik mavjud muammolarning yangicha yechimlari hisoblanadi.

Hozirda ko'plab ilm dargohlarida kreativlikni tarbiyalashga katta e'tibor qaratishmoqda.

Shu boisdan pedagoglarning kreativlikni tarbiyalashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda krreativ tafakkur o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi zarur. Quyida kreativlikni tarbiyalashning ba'zi mezonlarini keltiramiz:

1.O'z tafakkuringizni original, optimal yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga qarating, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zingizni undang;

2.Yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimang;

3. Keng mushohada etishga harakat qiling, an'anaviy bo'lмаган sullardan boydalanish, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotitlar qobig'idan chiqib ketishga urining, erkin ijodiy mushohada yuriting;

4.Agar birinchi tajribangiz muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribangizdan voz kechimang, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettiring, masala yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qiling, boshqa yo'llarni aqlan qidirib topish davom eting;

5.Disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo'ling, uni o'zingizga qaratilganligiga ishonmang, bahsni to'g'ri tashkil qiling, o'z fikringizni har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib boring;

6.Tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qiling.

7.An'anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz keching, yangi usullarda ishlashga urinib ko'ring;

8.Yangi g'oyalardan qo'rwmang, ularni albatta keng qo'llang.

Bugungi kunda dunyo ta'lif hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta'lif muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. 21 asr yoshlarini bilimlarni o'zlashtirishda, ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy kreativ tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta'lif taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g'oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o'z o'rnila jamiyat taraqqiyoti, xalq forovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi.

O'qituvchining kasbiy ijodkorligi ta'lif tizimi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun nazariy va amaliy asos yaratadi, buning natijasida chuqr ilmiy kasbiy va pedagogik tayyorgarlikka erishish mumkin.

Ta'lifning vazifalaridan biri pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentsiyani, pedagogik kadrlarning ijodkorligini amaliy shakllantirishga hissa qo'shishdir.

Ijodiy fikrlashning namoyon bo'lish bosqichlari o'qituvchining malakasi mezonlarini talab qiladi.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Kreativ tafakkur rivojlangan davlatlarni xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida eng quiy bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotida uning takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda shunday o'qitishni tashkil etish kerakki, o'quvchi kreativ fikrlovchi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funktsiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Kreativ tafakkur inson ma'naviyati, tarbiysi, bilimi, intellekti, iqtidori

kabilarni ishlata olish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarda istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan'anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya'ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirilishi kerak.

Har qanday muammoning yechimi bo'yicha bir emas bir nechta yechimlarni ko'rsata olish, hamda ularning barchasini o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini har tomonlama asoslab berish, ko'pchilik o'ylab ko'rmaydigan masalaning boshqa jihatlarini ham ochib berish kabi aql peshqadamligiga ega bo'lish;

Zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo'nalishlar va yo'llarni ko'ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo'nalishlarini topa bilish kabi noan'anaviy tafakkurga ega bo'lish;

O'z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o'zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglesh kabi prognoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlар uzlusiz ta'lif jarayonida shakllanishi va takomillashishi o'qituvchining ta'lif-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog'liq.

Ushbu xususiyatlar ma'ruzalar, pand nasihat yoki ko'rsatmalar bilan emas, balki yo'naltirish, abstrakt mashqlar va bilimlar asosida, tarbiyalash orqali bilan hosil qilinishi mumkin.

Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'limgan va an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan, batamom yangi usul, yo'l, vosita, yondashuvlarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

Katta keng qamrovli ishlab chiqarish tarmoqlarida o'nlab yoki yuzlab kreativ tafakkurga ega bo'lgan insonlarning fikrlari, qarashlari va tahlillarni umumlashtirish, rejalashtirish, o'rganish va umumiy yechimga keltirish asosida nostandard qarorlar

va yechimlar qabul qilinadi. Jahonda katta biznes strukturalarning faoliyati korporativ manfaatlar tafakkuri targ'ib qilinishi kreativ tafakkurning vujudga kelishiga turki bo'lgan.

Kreativ fikrlar inson ongining yuqori chegarasidagi va u o'rganmagan fikrlar,

noan'anaviy usullar, mavjud holat negizida yangi qarashlar asosida yangicha faoliyatni tashkil etishga qaratilgan mustaqil mushohadalardir.

Insonda ma'lum soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning hamda tarbiyalanganlikning mavjudligi kreativ tafakkurni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchining kreativligi uning innovatsion yondoshuvi asosida shakllanadi.

Ta'lif oluvchilarga o'quv jarayonini ijodiy tashkil etish uchun o'qituvchi innovatsion va ijodiy qobiliyatga, intellektuallik, ijodiy fikrlashga ega bo'lishi kerak.

Tizimli kreativ fikrlash quyidagilardan iborat:

1.Analitik tahlil jarayoni- bu tayyorgarlik jarayoni bo'lib, u axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, madjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash jarayoni.

2.Kontsentratsiya jarayoni-ma'lum bir muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ularning tizimi, tahlili olib boriladi. Aqliy salohiyat yetishmovchiligi jarayonidan o'tish va mazkur jarayonni bosib o'tishga intilish. Ong faolligining ba'zan ko'tarilishi yoki pasayishi, insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandard g'oyalarning tug'ilish va shakllanish jarayoni.

3. G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy kontsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ortiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi va guruhlanadi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy –ma'naviy

va qadriyatlар nuqtai nazarida nazoratdan o'tkazadi. So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tayyor tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.

4. G'oyalar tahlilini amalga oshirish jarayoni- g'oyalar tahlilini amalga oshirishda, hoyalar qidirishda, to'lqinli taraqqiyot jarayoni sodir bo'ladi. Inson tafakkurida ba'zi o'zgarishlar sodir bo'ladi, bunda inson tafakkuri o'zini tinch va o'suda tutmaydi, balki u turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Bu vaqtida odam bir mavzudan birdaniga boshqa mavzuga o'tib ketishi, ba'zi harakatlarni bajarishi mumkin bo'ladi. Bu inson tafakkurida kechayotgan ong oqimlarining faoliyati hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi sifatida –so'nggi qaror pishib yetiladi.

5. Analiz va sintez jarayoni-kreativ tafakkur faoliyati natijalarni tahlil qilish jarayoni, ya'ni mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda ong oqimida pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiylilikda tahlildan o'tkaziladi, hamda kreativ tafakkur mehnatining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlar o'ta murakkab jarayonlar bo'lib, u tezlik bilan amalga oshiriladi. Kreativlik tafakkurni odatdag'i fikrlash yo'llidan anche qiziqarli bo'lgan noan'anaviy usullarga olib keladi, shu sababli inson tafakkurida optimal qarorlar vujudga keladi va tug'iladi. Original, unikal, noan'anaviy, optimal qarorlar esa zamonaviy jamiyatni ilg'orlik, taraqqiyot, iqtisodiy takomil sari yetaklovchi kuch hisoblanadi.

Mavzu. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish

Reja

- 1.Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar va tamoyillar
- 2.Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari va ularning tarkibiy asoslari
- 3.Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari
4. Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari

Pedagogning kreativ potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlarni ko'rsating. tashabbuskorlik, kreativ qobiliyatga egalik, kreativ faollik, izlanuvchanlik; Pedagogning an'anaviy pedagogic fikrlashdan farqli ravishda ta'lif va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratishi, mavjud pedagogic muammolarni ijobjiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati **pedagogik kreativlik** deb nomlanadi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lif jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- o'zini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- shaxs fantaziysi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo'lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Mashg'ulotlarda o'qituvchi "Kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilari sanaladi:

- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)an foydalana olish;
- innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;
- kutiladigan natija.

Pedagogning kreativlik potentsiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi:



7-rasm. Pedagog kreativlik potentsialining ustuvor tamoyillari

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o'ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo'lish

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:


- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lislari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib

qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlashorqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi (8-rasm):

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanadirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.



8-rasm. Pedagog kreativ potentsialining tarkibiy asoslari.

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;

- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'rilingini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalgalashirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlanadiradi. Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi;
- pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtirop etadi.

Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlanadirishning samarali yo'llari

Xorijiy mamlakatlarda talabalar o'rtasida kreativ sifatni shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. O'qituvchilar, o'quv jarayonini tashkil qilishda kreativ yondashuv bo'yicha o'z-o'zini o'rganish bilan shug'ullanadilar. Talabalarningo'rganishgabo'lgan munosabatnik kreativ fikrlashorqali o'zgartirish, ulargayangig'oyalarnitopishgaimkon berish kerak, ta'limga iste'dodni qo'shish, batlantirish kabilark kreativlikni rivojlanadiradi.

Kreativlik tushunchasini quyidagicha izohlash mumkin: kreativlik (lot., ing. "yaratish" – yaratish, "kreativ" – yaratuvchi, kreativlik) - yangi g'oyalarni ishlab chiqadigan shaxsning kreativ qobiliyati, uning iste'dodi.

O'qituvchining kreativligi uning faoliyatining kreativ yondashuvida belgilanadi.

Nostandard darsda darsni qanday o'tkazish kerakligi to'g'risida qat'iy talablar mavjud emas, g'ayrioddiy dars yanada kreativ, erkinroq bo'lib, barcha ishtirokchilardan to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishni talab qiladi va o'rganish mavzusiga, dars ishtirokchilariga, uning ta'sir ko'rsatadigan shaxsiga hissiy munosabat paydo bo'lishiga olib keladi.

Shu o'rinda dars mashg'ulotida qo'llash mumkin bo'lgan nostandard va kreativlik usullaridan misollar keltiramiz:

Dars-munozara usuli. Ijtimoiy ahamiyatga ega va munozarali mavzu bo'yicha o'qituvchilar tomonidan munozara mavzusi taqdim etiladi. Ta'lif oluvchilar e'lon qilingan mavzu bo'yicha turli xil nuqtai nazarlarni bildiradilar, o'zlarining shaxsiy nuqtai nazarlari bilan chiqishlari shart emas, ta'lif oluvchilarga ataylab ular rozi bo'limgan nuqtai nazar berilishi mumkin, ammo dars doirasida ular buni himoya qilishlari kerak.

Biznes o'yini usuli. Darsda hayotiy vaziyat yoki muammoni biznes nuqtai nazaridan yechish, dars mavzusi doirasida "Biznes o'yini" tashkil etish bilan qo'yilgan mavjud muammoni hal qilishga erishiladi.

Dars-konferentsiya. Ushbu turdag'i dars o'rta maktabda eng ko'p talab qilinadi. Ta'lif oluvchilarga konferentsiya mavzusi oldindan xabar qilinadi, sinf guruhlarga bo'linadi, ularning har biri hisobot uchun mavzu oladi

Dars uchrashuvi. Darsga uchinchi shaxs (yozuvchi, olim, faxriy, sayohatchi, harbiy, chet ellik va boshqalar) taklif etiladi. Muayyan yo'nalish bo'yicha qiziqarli savollar tarkibi tuziladi, uchrashuv yuqori ruhda o'tishi uchun muhim tarkibiy qismlar oldindan ishlab chiqiladi.

Dars-konsert. Sahnalashtirish. Bunday darslar adabiyot, adabiy o'qish, chet tili darslari uchun eng mos keladi. Ushbu darsda mavzuga oid hayotiy voqyea va hodisalar oldindan talabalarga rejali ravishda berilib sahnalashtiriladi.

Integratsiyalashgan dars. Darslar bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq fan bo'yicha, ko'pincha ikkita o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi (adabiyot va fizika, ingliz tili va biologiya - kutilmagan kombinatsiya qanchalik qiziqarli bo'lsa).

Integratsiyalashgan darsning vazifasi turli mavzular, mavzu va haqiqiy hayot o'rtaсидаги bog'liqliкни ko'rsatishdir.

Didaktik o'yin. Ta'lif oluvchilar o'ynaydigan dars, masalan, "Kim o'zar o'yini", "Kim millioner bo'lishni xohlaydi", "Nima? Qayerda? Qachon?" va boshqalar ta'lifi maqsadga yo'naltirilgan o'yinlar samarali hisoblanadi. Bunday darslar chorak boshida yoki oxirida boshlang'ich yoki yakuniy darslar kabi mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va umumlashtirish uchun juda yaxshi.

Dars-tadqiqot. Ushbu darsning ajoyib tomoni shundaki, sinfda muammoni hal qilishning kirish qismida gipoteza ilgari suriladi va keyingi harakatlar algoritmg'a qisqartiriladi. Ish natijasida ta'lif oluvchilar xulosalar tuzishlari, o'z faoliyati natijalarini talqin qilishlari kerak.

Interfaol TRIZ usuli. Ushbu zamona viy pedagogik texnologiya-bu ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi (TRIZ) hisoblanadi. Asosiy maqsadi- ta'lif oluvchilarning aql-idrokini va ijodiy faoliyatining zaruriy shartlarini rivojlantirish. TRIZ ta'lifning turli darajalarida (maktabgacha ta'lifdan olyi ta'limgacha) ishlab chiqiladi.

TRIZ yaratuvchilari ta'lif oluvchilarning aql-idrokini va ijodiy faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni rivojlantirishning o'ziga xos usullari va vositalarini taklif qilishadi. Ushbu usul va vositalarga quyidagilar kiradi: umumiy ob'ektlar usuli, odatiy fantaziya usullari va boshqalar.

I.Umumiy ob'ektlar usulining mohiyati shundan iboratki, ta'lif oluvchilar faoliyatini tashkil qilishda biron bir ob'ektga yoki ushbu ob'ekt asosiy narsaga aylanadi. TRIZ mualliflari ushbu usulni universal deb hisoblashadi, ya'ni u turli xil faoliyat turlarida ishlatalishi mumkin: o'yin, vizual, konstruktiv va boshqalar.

Umumiy ob'ektlar usulining imkoniyatlari shundan iboratki, uning yordami bilan ob'ektlarni tahlil qilish va munosabatlarni o'rnatish qobiliyatishakllanishi mumkin.

II. Fantaziya qilishning odatiy usullari. Ularning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarning tasavvurini rivojlantirishdir. Rivojlanish mualliflari 4 ta odatiy fantaziya texnikasini taklif qilishadi.

1. Texnika va hodisalarini "Insoniylashtirish".
2. Asar syujetini o'zgartirish.
3. Asar epizodini o'zgartirish.
4. Oxirini o'zgartirish.

Ushbu fantaziya usullari yangi, noma'lum narsalarni taklif qilishning ma'lum usullari bilan munosabatlar va ko'nikmalarini o'rnatish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ijodkorlik tajriba nuqtai nazaridan yangi narsalarga tanqidiy munosabat bilan emas, balki yangi g'oyalarga nisbatan sezgirlik bilan belgilanadi.

E.Frommning fikriga ko'ra, ijodkorlik - bu ajablanish va bilish, nostandard vaziyatlarda echim topish qobiliyati, u yangisini kashf etishga va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyatiga qaratilgandir.

Barcha ta'riflar uchun umumiyl bo'lgan narsa shundaki, kreativlik ijodkorlik qobiliyati sifatida belgilanadi.

S.D.Smirnov ijodkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi ikkita omil guruhini aniqlaydi: **vaziyatli va shaxsiy.**

Vaziyatli: vaqt chegarasi; stress holati, xavotirning kuchayishi; tezda echim topish istagi; juda kuchli yoki juda zaif motivatsiya; muayyan echim usuliga qat'iy munosabat mavjudligi; oldingi muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga kelgan qobiliyatlarga ishonchszilik; qo'rquv; tsenzuraning kuchayishi.

Shaxsiy: konformizm; o'ziga shubha; juda kuchli ishonch; hissiy tushkunlik va salbiy his-tuyg'ularning doimiy ustunligi; xavfli xatti-harakatlardan qochish; muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi ustidan muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivatsiyasining ustunligi; shaxsiy xususiyat sifatida yuqori tashvish; shaxsni himoya qilishning kuchli mexanizmlari va boshqa bir qator omillar.

Kreativlikni rivojlantirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratishda ushbu omillarni hisobga olish kerak.

Kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlash boshlashadi. M: Talabalar "Immigratsiya hodisasing mohiyati"ni "Aqliy hujum" strategiyasi asosida o'rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o'zi nimaligini, uni qanday qo'llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo'lishlari lozim.

Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari

Pedagogik ijodning mohiyati ko'pincha o'zgaruvchan sharoitlarda son-sanoqsiz muammolarni hal qilish jarayoni sifatida talqin etiladi, ya'ni pedagogik faoliyat tabiatan ijodiydir.

Ko'pgina o'qituvchilar, psixologlar, olimlar o'qitish hunarmandchilik emas, balki san'at deb hisoblashadi. Ijodiy faoliyatni amalga oshiruvchi ijodiy shaxs bo'lishi kerak.

Har qanday ijodiy faoliyat har doim shaxsga, uni amalga oshiradigan shaxsning individual ijodiy qobiliyatiga bog'liq. Shuning uchun. Pedagogik faoliyatni pedagogik san'at darajasiga ko'tarish uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi shaxsining ijodiy salohiyatini rivojlantirish va unga keng yo'l ochib berish kerak.

Ijodkorlik, shuningdek individuallik, standart doiraga mos kelmaydi, u har bir insonning o'ziga xos shaxsiyati kabi noyob va o'ziga xosdir.

Pedagogik ijodkorlik faqat o'qituvchining shaxsiyatining ichki ehtiyojlari va individual qobiliyatları chuqurligidan rivojlangan taqdirdagina haqiqiy san'atga aylanadi.

Shu munosabat bilan quyida talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ularning pedagogik faoliyatini yangilash va rivojlantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha vazifalar keltirilgan.

Shunday qilib, vazifalar ijodkorlikni shaxsiy sifat sifatida rivojlantirishga qaratilgan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- introspeksiya va o'zini o'zi qadrlash asosida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning individual potensial va real darajasini aniqlashga imkon beradigan vazifalar;


- intellektual va ijodiy qibiliyatlarni rivojlantirish uchun vazifalar. Masalan: muammolarni qidirishda xushyorlik, yaxlit idrok, tanqidiylik, moslashuvchanlik, fikrlashning o'ziga xosligi, g'oyalarni yaratish qulayligi;

- ijodiy shaxsga xos bo'lgan fazilatlarni shakllantiradigan vazifalar

- ijodiy, pedagogik faoliyatga e'tiborni shakllantiradigan vazifalar.

Barcha vazifalar ijodiy xarakterga ega va imkon qadar ko'proq olib berishga, potensial imkoniyatlarni aniqlashga, ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun eng muhim individual fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi; shuningdek, vazifalar bir qator psixologik to'siqlarni olib tashlashga yordam beradi.

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi –kreativ potensiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi (9-rasm).



9-rasm. Pedagogning kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lislari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi

ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi (1-jadval):

1-jadval.

Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari

| Nº | Darajalar | Daraja xususiyatlari |
|----|-----------|---|
| 1. | Yuqori | Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyib etib boradi, kreativ jihatdan o'ta faol, izlanuvchan |
| 2. | O'rta | Ba'zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo'lmasa-da, ammo namoyon bo'ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo'lishga intiladi |
| 3. | Past | Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo'lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo'lmaydi, izlanuvchan bo'lishga intilmaydi |

Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida amerikali tadqiqotchi Patti Drepeau tomonidan taklif qilingan yo'llarda foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi. Qolaversa, pedagoglarda kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafoliyatlaydi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'lajak pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko'rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik kreativlikka qanday sifatlar xos?
2. Pedagoglarda qanday ijodiy-pedagogik faoliyat malakalari mavjud bo'lishi zarur?
3. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning qanday yo'llari mavjud?

- 4.Pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar nimalarda aks etadi?
- 5.Shaxs kreativligini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari qaysilar?
- 6.Pedagoglarning kreativlik imkoniyatlari nimalarda aks etadi?
- 7.Pedagoglar kreativlik imkoniyatlarining tarkibiy asoslari nimalardan iborat?
- 8.Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday mezonlar yordamida aniqlanadi?
- 9.Pedagoglarning kreativlik imkoniyati qanday darajalarda namoyon bo'ladi?

4-modul: Pedagoglarda kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar

Mavzu. Kreativlik sifatlari va ijodiy tafakkurnirivojlantiruvchi metod, vositava texnologiyalar

Reja:


- 1.Pedagoglarning kreativlik sifatlariiga egaliklarini aniqlovchi shakl, metod va vositalar.
- 2.Bo'lajak pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.
- 3.Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalar.

Tayanch tushunchalar: *kreativlik sifatlari, kreativlik sifatlariga egalikni aniqlash, shakl, metod, vosita, kreativlik sifatlarini rivojlantirish, axborot texnologiyalar.*

Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi.

Shuningdek shaxsda stenik tuyg'ular (kognitiv va ijodiy faoliyatdan quvonch hisobi, intiolar jarayonida qiyinchiliklarni engishga tayyorlik, kognitiv yoki ijodiy maqsadga erishishdan g'ururlanish, biror narsa o'ylab topish imkoniyatidan yavqlanish, ijodiy ish boshlanishidagi optimistik faollik, uning ijobiy natijasini kutish, muvaffaqiyasizliklar holatida xotirjamlik va boshqalar) ham hosil bo'ladi.

Inson aql-zakovati sohasidagi mutaxassislar ijodiy jarayonni ta'minlash uchun konvergent (mantiqiy, ketma-ket, chiziqli) va divergent (yaxlit, intuitiv, aloqador) tafakkurning kombinasiyasi zarur deb hisoblaydilar. Tafakkur xususiyatlarining bunday kombinasiyasi natijasi ongning ravonligi va moslashuvchanligi, shuningdek, o'ziga xoslik, hukmning aniqligi bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi



Pedagogik jarayonda ijodkorlikni rivojlantirish uchun shaxs salohiyatini oshirishga, ijodiy faolligini oshirishga yordam beradigan o'qitish metodlari va texnologiyalaridan foydalanish zarur. Ushbu texnologiyalar shaxsning o'zini o'zi qadrlashni shakllantirishga, o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni oshirishga va vog'elik bilan adekvat aloqada bo'lishga to'sqinlik qiladigan psixologik qiyinchiliklarni rivojlanishiga yordam beradi.

Kreativ shaxslar ikki toifaga bo'linadi:

I.Katta kreativlar ("katta K"). Ular o'zlari faoliyat olib borayotgan sohaning yetakechilari bo'lib, sohada doimo o'zgarishlarni sodir etishga intiladi.

2.Kichik kreativlar (“kichik K”). Ular o’zlarining kreativlik sifatlaridan faqatgina kundalik hayotda muayyan foydaga erishish uchun foydalanadi.

Aksariyat talabalar o’zlarini kreativ shaxs emas, deb hisoblaydi. Ularning nazarlarida kreativlik go'yoki ular yetisha olmaydigan orzu va u faqat iqtidorli shaxslardagina namoyon bo'ladi. Bunday fikrga ega talabalar kreativlik sifatlariga egalik o'z sohasining yetakchilari (ya'ni “katta K” toifasiga kiruvchi shaxslar), san'at sohasida tahsil olayotgan yoki faoliyat yuritayotgan talabalarda bo'llishiga ishonadilar. Talabalar qachonki kreativ shaxs bo'llish uchun o'z sohasining yetakchisigina bo'llish shart emasligi tushunsalar, o'zlarida kreativlik sifatlarini samarali shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Shundagina ular o'zlarini past baholashga barham berib, yangi, ilg'or g'oyalari bilan o'zlarini namoyon etishlari, ta'lim jarayoni kun sayin faollik ko'rsatishga muvaffaq bo'ladilar, ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari yanada yaxshilanadi. O'zlarini baland baholay boshlab, kreativ sifatlarni namoyon etish borasida mavjud ko'rsatkichlardan ko'ra yuqori natijalarga erishishga intiladilar.

Amaliyotning ko'rsatishicha, talabalar qancha ko'p kreativlik sifatlarini namoyon etsalar, shuncha ko'p faollikka erishadilar.

Kreativ xarakterga ega mashg'ulotlar talabalarning qiziqishlarini kuchaytirib, ular yanada ko'proq harakat qilishga undaydi.

Talabalarga "Kreativlik" atamasining mohiyati to'g'risida erkin fikr bildirishga taklif qilinadi. Suhbatni quyidagi savollar bilan rag'batlanirish mumkin.

"Kreativlik nima?»

1. Sizningcha, kreativlik nima? Ijodkorlik?
2. Ularning tushunchalarida qanday umumiylar va farq bor?
3. Har qanday faoliyat ijodiy bo'llishi mumkinmi?
4. Tom Soyer panjara chizgan episodni eslang. Ijodiy ravishda teshik qazish, devorni bo'yash mumkinmi?
5. Sizningcha, qaysi kasblar, faoliyat turlari ijodiy deb tasniflanishi mumkin? Ijodiy bo'lmagan kasblar bormi? Nima uchun?

6. Odamlar ijodning mohiyatini qanday aniqlaydilar? Ijodiy faoliyatning ko'rsatkichlarini, mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkinmi?

7. Nima uchun A.S.Pushkinning she'riyati va birinchi sinf o'quvchisining she'rlari ijodiydir? Ularni bir-biri bilan taqqoslash mumkinmi?

8. Kimni ijodiy shaxs deb atashimiz mumkin?

9. kreativlikni o'rganish mumkinmi?

10. Sizningcha, buning uchun nima qilish kerak?

11. Siz ijodiy odammisiz?

12. O'zingizning ijodingizga misollar keltira olasizmi?

Muhokamadan so'ng ular xulosa qilishadi, xulosalar chiqarishadi

"Isitish o'yini".

Talabalarga shunday vazifa taklif etiladi: aylanada o'tirish va bir-birlariga to'p tashlash, ularning nuqtai nazari bo'yicha kreativ shaxsni tavsiflovchi **sifatlarni** nomlash. Ehtiyyot bo'llish va iboralarni takrorlanmaslik kerak. O'yin talabalar yangi ta'riflarni topishda qiyalguncha davom etadi.

Shundan so'ng, talabalar to'pni tashlab, ijodiy faoliyatni tavsiflovchi **fe'llarni** nomlashga taklif qilinadi. Ushbu o'yin ijodkorlikka kreativ shaxs ega bo'llishi kerak bo'lgan fazilatlar nuqtai nazaridan qarashga imkon beradi. Bu ijodiy faoliyat tushunchalarini aktuallashtirishga yordam beradi. Bu ma'lum darajada o'z ijodiy qobiliyatlarini aniqlashga imkon beradi.

"Kreativlik»

- rejadan talabalarning e'tiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirdarning o'rinni olishiga erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirdarning reja uchun emas, balki talabalarning ehtiyojlarini qondirish, ularni shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, xarakteriga, ko'lami va b. xususiyatlarga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha talabalarini birdek faol ishtirok etishlariga erishish.

Nafaqat ma'naviy-ma'rifiy tadbirdar tashkil etiladigan joy, balki o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan auditorianing jihozlanishiga erishish pedagogning ham tashkilotchilik, ham kreativ faolligidan dalolat beradi. Har ikki holatda ham pedagog o'rganiladigan, tahlil etiladigan mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda

o'quv auditoriyasi va tadbir o'tadigan joy (xona)ni o'ziga xos ruhda bezata olishi maqsadga muvofiqdir.

O'quv mashg'ulotlarida auditorianing mavzuning xarakteriga ko'ra plakatlar, mulajlar, gerbariyalar, xaritalar, badiiy adabiyotlar, olimlar, rassomlar, yozuvchilar, sarkardalar hamda davlat arboblarining portretlari, ish jihozlari, yozishmalar, adabiyotlari, badiiy asarlari va h.k. bilan bezatilishi mashg'ulot va tadbir ruhiyatini ko'tarishga, talabalarga ijobiy, hissiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog qanchalik kreativ bo'lsa, o'quv auditoriyasi va ma'naviy- ma'rifiy tadbirdar tashkil etiladigan xonani talabalar bilan hamkorlikda, ularning ijodiy imkoniyatlari, kreativlik layoqatlariga tayangan holda jihozlashga muvaffaq bo'ladi. Natijada ham talabalarning kreativ faolligi oshadi, ham mashg'ulot, tadbirning ta'sirchanligi kuchayadi.

Shunday qilib, zamonaviy o'qitishda muammoli ta'lum muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'lum texnologiyalari talabalarda fikrlash, qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantirish ko'nikma, malakalarini samarali shakllantirishga yordam beradi. Bu kabi texnologiyalar orasida "Keys-stadi" texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keys-stadidan ta'lum jarayonida o'rinni, maqsadli, izchil foydalanish o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, shu bilan birga talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi.

Mavzu. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar

Reja

1. Intellekt strukturasi modeli, tafakkurni konvergent va divergent turlari
2. Ta'lum oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish
3. Ijodkorlikni yuzaga keltirish usullari

Kalit so'zlar: kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyat, kasbiy innovatsion kompetentlik, innovations ta'lim texnologiyalari.

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potentsiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega. Amerikalik olim D. Veksler “Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi” - deb ta'rif beradi .

A.Maslouhamkreativlikni - barchagaxostug'majjodiyyo'nalish, atrofsmuhitningta'siridakopchilikdayo'qolibketuvchifaoliyatdehisioblagan.

Amerikalik psixolog olim Dj Pol Gilford o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida kreativlik va intellektni birinchi marotaba taqqosladi. U intellekt strukturasi modelini yaratishda tafakkurni konvergent va divergent turiga ajratdi.

Konvergent tafakkur - (lotincha convergere – “bir yo'lidan”) tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

Divergent tafakkur – (lotincha divergere – “bo'linish”) ijodiy tafakkur metodlaridan biri bo'lib, berilgan bir muammoning bir qancha yechimlarini topish, shuning bilan bir qatorda, divergent tafakkur “bir vaqtning o'zida turli yo'nalishlarga izlanish, ya'ni bir muammoga bir nechta to'g'ri javoblar borligini va original ijodiy g'oyalarning tug'ilishiga xizmat qiladi.

Divergenttafakkurningasosidakreativlikyotadi.DjoGilfordumumiyyobiliyatlar sohasinadqiqilishnatijalarinitizimlashtirib, “Intellektstrukturasimodelini” nitaklifetadi. Uning modeli asosida “mazmun”, “operatsiya”, “Reaksiya” tushunchalari mavjud.

Reaksiya – materialga nisbatan qanday operatsiyani qo'llash natijasi. Gilfordning modelidagi barcha faktorlar mustaqil bo'lib, u uch o'lchamli, ba'zida esa nomlarning klassifikatsion shkalalari turli xil o'lchamlarda ham uchrab turadi.

Operatsiya deganda Gilford sinovdan o'tkazilayotgan ob'ektning qobiliyatini, ya'ni quyidagi psixik jarayonlarni tushunadi: tushuncha (dunyoqarash sifatida), xotira, divergent unumdarlik (har xil yo'nalishlarda fikrlash), konvergent unumdarlik (faqat yagona to'g'ri javobga olib keluvchi fikr), baholash.

Mazmun esa axborot yoki materialning operatsiya olib borilayotgan tabiatini bilan aniqlanadi: tasvir, simvollar (harflar, raqamlar), semantika (so'zlar), xulq.

Natijalar – sinovdan o'tkazilayotgan ob'ekt tomonidan qayta ishlanayotgan axborotlar joy olgan formadir: element, munosabatlar, sistemalar, o'zgaruvchanlik turlari va xulosalari.

Faktorlar har bir o'lchamdagи kategoriya (bo'lim)larining birlashuvi bilan xarakterlanadi.

Gilfordning klassifikatsion sxemasida umumiy faktorlar soni $5 \times 4 \times 6 = 120$ ga tengdir.

Hozirda yuzdan ortiq faktorlar o'rganilgan, ularning diagnostikasi uchun alohida testlar tanlab olingan. Gilfordning bu boradagi kontseptsiyasi AQSH da pedagoglar tomonidan iqtidorli bolalar va o'smirlar bilan ishlashda keng qo'llanilib kelmoqda. Ularning asosida faktorlarni ratsional rejalshtirish va qobiliyatlarning rivojlanishiga yo'naltiruvchi dasturlar yaratilgan. Olimlar Gilfordning asosiy yutug'ini uning tafakkurni divergent va konvergentlarga ajratib berganligida deb hisoblaydilar.

Gilford kreativlikni divergent tafakkurning unumdarligi bilan bog'laydi. Pedagogik manbalarda siz uning **“Kreativlik – divergent tafakkur jarayonidir”** degan fikrini uchratishingiz mumkin. Dastlab, Gilford o'z kreativlik strukturasida divergent tafakkurdan tashqari o'zgaruvchanlik qobiliyati, yechimning aniqligi va boshqa intellektual parametrlarni birlashtirdi. Shuningek, u kreativlik va intellekt o'rtaida o'zaro uzviy aloqa borligini isbotladi. Biroq, Gilford

o'z tajribalarida yuqori intellektuallarning test yechish davomida ijodkorlik xulqini har doim ham ko'rsatmasligini, kreativ past intellektualli bo'lmasligini aniqladi. Shunday ekan, divergent tafakkur kreativ jarayonning barcha xususiyatlarini aks ettirmaydi.

Pol Torrens kreativlikni tafakkur terminlarida ta'riflab, ijodiy tafakkurni "Qiyinchiliklar, muammolar, axborotdagi kamchiliklarni his qilish; shu kamchiliklarning gipotezlar tuzilmasi, ularni tekshirish va baholash, qayta ko'rish hamda tekshirish, va niyoyat, natijalarini umumiylashtirish" sifatida tushunadi.

Kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandard shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir.

Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo'lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida darajali test topshiriqlaridan foydalanish va ularni hal etish shaxs kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Darajali testlar talabalarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu turdag'i testlarni tuzish murakkab jarayon bo'lib, u pedagogdan, albatta, kreativ fikrlashni talab etadi.

Darajali testlarni tuzish orqali pedagog, birinchedan o'zidagi kreativ sifatlarni rivojlantirish borsa, ikkinchedan talabalarni ham ijodiy fikrlashga undaydi.

Shunday ekan, darajali testlar ham shaxs kreativligini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatga ega.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. Uning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Demak, o'qitishga kreativ yondashuv masalasi bu pedagogik jarayonni shaxs imkoniyatlariga yo'naltirilgan holda tashkil etish, ta'lim oluvchilarining ijodiy va mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi zaruriy o'qitish texnologiyalarini tanlash va amalga oshirishda, shuningdek, o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligi bilan asoslanadigan o'qitishga nisbatan zamonaviy yondashuv shakllaridan sanaladi.

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigatevi — harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak taruzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan.

G'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari bugun koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'rimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi.

Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislarga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiylashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "**Create**"dan olingan bo'lib, **yaratish** ma'nosini bildiradi.

Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'yndaydi.

Albert Eynshteyn "**Tasavvur — bilimdan muhim**" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi o'z ishini "Yengillashtirish", "Qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar shu paytgacha ma'lum bo'lgan va umumqabul qilingan fikrlardir. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g'oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "Oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra oson tuyuladi.

Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "So'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi.

Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi.



"Olti shlyapa" usuli. Edvard de Bono taklif etgan "Olti rangli shlyapa usuli"da biror mavzu tanlanadi. Navbatma-navbat shapkalar kiyiladi: oq — diqqat bilan, hech qanday emotsiyasiz barcha faktlar tekshiriladi; qora — kamchiliklar aniqlanadi; sariq — mavjud holat tahlil etiladi; yashil — yana yangi bir necha g'oyalalar qo'shiladi; qizil — emotsiyal munosabat bildiriladi; ko'k — ish

xotimalanadi. Masalan, ta'lrim tizimiga oid qonunchilikni takomillashtirish mavzusi ko'rileyotgan bo'lsa, mavjud qonunchilik o'rganiladi, kamchilik va bo'shlqlar aniqlanadi. Qonuniy me'yorlarning real holat bilan mosligi yoki qarama-qarshiligi o'rganiladi. Ta'lrim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi takliflar beriladi, ular amalga oshsa, qanday samara berishi izohlanadi. Taklif loyiha shaklida rasmiylashtiriladi.

Uolt Disneyning kreativ fikrlash nazariyasi. Uolt Disney ko'ngilochar sohada o'z sanoatini yaratgan, animatsion multfilmlari bilan butun dunyoga tanilgan shaxs. U dunyoga mashhur personajlarini yaratishda kreativlikning uch fazasi — xayolparast, realist, tanqidchi obrazidan foydalanadi. Ya'ni, xayolparast rolida hech qanday chegarasiz xayol suradi, fantaziya yaratadi. Bu jarayonda u Baxning "Tokkata, fuga re minar" musiqasini eshitishini aytgan. Xayolida obrazlar yaratilgandan keyin uni reallik bilan uyg'unlashtiradi. Personaj qanday harakatlanadi, qanday gapiradi — barchasini konstruktor sifatida jonlantiradi, reallashtiradi. Shundan keyin xayolparast va realist ishini tanqidchi ko'rib chiqadi. Tanqidchi "filtr" vazifasini bajaradi. Uolt Disneyning yutug'i xayolparast, realist, tanqidchini bitta shaxsda jamlay olganidir. Odatiy fikrlovchilarda ularning bittasi ustuvorlik qiladi.



Ta'larning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

PISA xalqaro dasturida kreativ fikrlashni baholashda OECDning kreativ fikrlashni rivojlantirishga qodir yangi pedagogikalarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq yana bir yangi loyihasidir.

Bundan maqsad, faqat ijodkor shaxslarni ajratib olish emas, aksincha o'quvchilar g'oyalarni qidirish, ifodalashda kreativ fikrlash qobiliyatining o'qitish yondashuvi, maktab faoliyati hamda ta'lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini tavsiflaydi.

Kreativ fikrlash — bu innovations (yangi, novator, original, nostonart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamlı, optimal va hokazo) yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirok etish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noodatiy yechim topishga yordam beradi. Biroq biz uni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi yechimlarni topishda yordam beradigan "aka-ukalar"dek qarashimiz kerak.

PISA tadqiqotlarida o'quvchidan kreativ fikrlashni baholash modeliga ko'ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish, o'z g'oyalarni yozma yoki vizual ifodalash talab etiladi.


Kreativ fikrlashni baholashda turli g'oyalarni ishlab chiqish, kreativ g'oyalarni ishlab chiqish hamda g'oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga e'tibor qaratiladi.

Agar ibridoiy odamlarning kreativ fikrlashi bo'lmaganida edi, ikkita shaqmoqtoshni bir-biriga urib olovni, Tomas Edison elektr lampasini, Leonardo da Vinci parashyutni ixtiro qilmagan bo'lar edi.

Har bir o'quvchida ta'lif olishga bo'lgan istak bor. Faqatgina biz shu istakni nuqtasini topishimiz kerak va biz bunga ya'ni ruhlantirish, ta'lif berish va rag'batlantirish orqali erishamiz.

Kreativlik potentsialiga ega pedagog o'zida quyidagi malakalarni namoyoneta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo'yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, taqqoslash va b.)larni qo'llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riliгини asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala echimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiy lashtirish.



Pedagogning kreativ potentsiali quyidagi tarkibiy asoslarni o'z ichiga oladi: **Maqsadli-motivli yondashuv**(ijodiy faoliyat qadriyat sanaladi va u pedagogning qiziqishlari, motivlari, faoliyatni tashkil etishga intilishida ko'zga tashlanadi);

Mazmunli yondashuv(o'zida pedagogik, psixologik, maxsus va innovatsionxarakterdagi BKMni aks ettiradi);

Tezkor-faoliyatli yondashuv(o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doirharakatlar, shuningdek, amaliy (maxsus, texnik, texnologik) faoliyat usullarini ifodalaydi);

Refleksiv-baholash(bunda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'zo'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash ko'zga tashlanadi).

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Natijada pedagog:

- ijodiy fikrlashga odatlanadi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish ko'nikmalarini puxta o'zlashtiradi; pedagogika yoki mutaxassislik fani yutuqlari hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- pedagogik jamoa tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot va ijodiy loyihalarni bajarishda faol ishtiroy etadi

Mavzu.Kreativ ko'nikmalar va bo'lajak pedagoglarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni

Reja

- 1.Kreativ ko'nikmalar va bo'lajak pedagoglarda kreativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining mohiyati
- 2.Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish va undan foydalanishning samarali yo'llari
- 3.Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to’rtta kreativlik ko’nikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko’nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin:

1. Ravonlik. Ko’plab g’oyalarni o’ylab topish ko’nikmasi ko’p degan so’zga asoslanadi.

2. Moslashuvchanlik. Turli g’oyalarni o’ylab topish ko’nikmasi o’zgartirish degan so’zga asoslanadi.

3. O’ziga xoslik. Boshqalarga o’xshamagan, ajralib turuvchi g’oyani o’ylabtopish ko’nikmasi noyob degan so’zga asoslanadi.

4. Yaratuvchanlik. G’oyalarni kengaytirish ko’nikmasi qo’shish degan so’zga asoslanadi.

Kreativlik darslarida bo’lajak pedagoglardan ajoyib g’oyalarni o’ylab toppish (o’ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g’oyalar bilansolishtirish va ulardagi bog’liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda,mazkur ko’nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

Ravonlik. Kreativ ravonlikning asosiy maqsadi bo’lajak pedagoglarda bir emas, balki bir nechta g’oyalarni o’rtaga tashalash ko’nikmasini shakllantirishdan iborat. Son asosiy maqsaddir; bir qator g’oyalar ichidan bir yokiundan ko’p maqbulini topishimiz mumkin. Ko’p hollarda o’qituvchilar bo’lajakpedagoglarda ravonlik ko’nikmasini shakllantirish uchun “aqliy hujum” strategiyasidan foydalanadilar. Bu mashq og’zaki yoki yozma (g’oyalarni qog’ozga yozib, keyingi talabaga qo’shimcha g’oyalar kiritish uchun uzatishi lozim)tarzda bajarilishi mumkin. “To’xta va boshla” mazmundagi “Aqliy hujum”mashqida Bo’lajak pedagoglar g’oyalarni o’rataga tashlab, ularni tahlil qiladilarva baholaydilar, so’ng bu yana bir bor qaytariladi. Bo’lajak pedagoglar bumashqda yaxshi natijalarga erishsalar,ulardagi kreativlik ko’nikmasi erkin va ravon fikrlash ko’nikmasi bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. Agarda aksi bo’lsa,doimiy mashq va tajriba yordamida yashxi natijalarga erishi mumkin. O’qituvchi mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchragan bo’lajak

pedagoglarni kuzatishi tabiiy. Faqtgina yuzaki ma’lumotga ega bo’lgan bo’lajak pedagoglar cheklangan bilimga ega bo’lganliklari sababli turli va qiziqarli g’oyalarni o’ylab topishda qiynaladilar. Ba’zi hollarda esa, etarlicha ma’lumot va bilimga ega bo’lajak pedagoglar ham mazkur mashqni bajarishda qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Bunday vaziyatda o’qituvchi quyidagi strategiyalardan foydalangan holda bo’lajak pedagoglarga yordam berishi mumkin: bo’lajak pedagoglarga ruh bag’ishlovchi muhitni yaratish. O’qituvchi bo’lajak pedagoglarga sinfdagi barcha buyumlar, jihoz, deraza va devorga osilgan rasm, jadval, sxemalarga e’tibor qaratishni va ularga sinchiklab qarashni so’raydi.

Sinf xonasidagi barcha narsalar bo’lajak pedagoglarda qanday g’oyalarning paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Ularga bu jihoz va buyumlar nimalarни eslatdi yoki qanday ma’lumot bilan bog’liqligi bor?

Masalan, agarda bo’lajak pedagoglar tsunami haqida “Aqliy hujum” mashqini bajarayotganbo’lsalar, tashqarida nur sochib turgan quyosh ularga tsunami quyoshli kunda ro’yberishini eslatishi mumkin.

Yangi g’oyalarni o’ylab topishda bo’lajak pedagoglar qiziqishlaridan foydalanish. “Aqliy hujum” mashqi ma’lum bir adabiy asar haqida bo’lsa, asar qahramonlari xarakteri va ularning hatti-harakatlari ular yoqtirgan asar qahramonlari, televizion ko’rsatuv ijodkorlari yoki mashhur sportchilarning fu’latvori va hatti-harakatlari bilan solishtirishlari mumkin.

Bo’lajak pedagoglar kreativlikda ravonlik va erkinlikka erishmasalar, mashqva darslar jarayonida ularning miyasiga birinchi kelgan g’oyagagina tayanibqoladilar, vaholanki bunday g’oya boshqalarning g’oyasida ajralib turmaydi vatalabaning keng fikrlashidan dalolat bermaydi. Qolaversa, muammoningechimini topishda qancha ko’p g’oya topilsa, to’g’ri javob yoki variantni tanlashimkoniyati shuncha katta bo’ladi.

Moslashuvchanlik. O’quvchilar keng fikr yurita olsalar, vaziyat va muammoga ham bir qancha va turli echim topadilar. Bo’lajak pedagoglarda

moslashuvchanlikni ular turli nuqtai-nazar va fikrlarni inobatga olganlari va ularni tahlil qilganlarida, turli fikrlarin bir-biri bilan solishtirganda va ularning o'hashsh va farqli tomonlarin topganlarida va nihoyat muvafaqqiyatga erishib, yaxshi natijalar ko'rsatayotganlarida kuzatish mumkin.

Moslashuvchan bo'lajak pedagoglar ma'lumotning faqat yuzakini qismini emas, balkiuning chuqur mohiyatini anglab etishlari lozim. Moslashuvchanlik ko'nikmasinishakllantirishda bo'lajak pedagoglar amaliyot bilan ta'minlansa va ularga yo'lyo'riq ko'rsatilsa, kelgusida turli g'oyalarni topishda bu kuchli stimul bo'libizmat qiladi. Agarda talaba ko'plab g'oyalarni topgan bo'lsa, umoslashuvchanlikni emas, balki ravon fikrlashni namoyon qilmoqda, chunki bundabarcha e'tibor bitta yoki bir turdag'i javoblarga qaratiladi. Bo'lajak pedagoglardamoslashuvchalik ko'nikmasini shakllantirishda soni jihatdan ko'p emas, balki turli mazmundagi g'oyalarni topish kerakligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Muammoning mazmunini chuqur anglagan holda ham, bo'lajak pedagoglar turli g'oyalarni topishda qiynaladilar yoki umuman bunga qodir bo'lmaydilar. Bu esa, o'z o'mida, ularda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirish keraklidan dalolat beradi.


Tajriba va doimiy mashq yordam bersada, o'qituvchi bo'lajak pedagoglarga murabbiy sifatida turli strategiyalardan foydalanishni o'rgatishi kerak. Bo'lajakpedagoglarga turli g'oyalarni turli toifa (kategoriyalari)ga bo'linishini anglashidayordam berish mumkin.

Mashq shu yo'sinda davom etadi. Bu bo'lajak pedagoglar bir kategoriya, ya'ni bir fikrdan ikkinchisiga o'tish va unga tezda moslashish ko'nikmasini o'zlashtirmaguncha davom etadi. Bo'lajak pedagoglarda bunday ko'nikma shakllangach, ulardan moslashuvchanlik bilan fikrlashni talab qilish mumkin.

O'ziga xoslik. O'ziga xoslik nooodatiy g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasidir.O'quvchilar o'zlarida avval moslashuvchanlik va ravonlik ko'nikmalarinishakllantirib, so'ng nooodatiy, original g'oyalarni kashf etish

ko'nikmasini hosilqilishlari lozim. Ravon fikrlash ko'nikmasi o'quvchilarda originalliknirivojlantirishda boshlang'ich va asos soluvchi qadam bo'lib xizmat qiladi; agardatalaba ko'p g'oyalarni o'rataga tashlasa, ulardan bir yoki ikkitasi albattra boshqatalabaning g'oyasi ham bo'ladi.

Moslashuvchan fikrasho quvchilarga ularning har bir g'oyalari bir-biridan farqlanishini ko'rish va anglash imkonini beradi; ularning orasida hammasidan ajralib turuvchi g'oyabo'lsa, demak ana shunisi original (o'ziga xos) g'oya hisoblanadi.



Bo'lajak pedagoglar original g'oya kontekstidan kelibi chiqishi lozimligini anglashlari lozim. G'oya bir dars jarayonida, birgina sharoitlar va bir vaqt oralig'ida taqdim etilishi lozim. Bo'lajak pedagoglarda rovon fikrlash va moslashuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'ziga xos tarzda (original) fikrlash to'g'risida ham ma'lumot berib o'tish lozim.

Masalan, bo'lajak pedagoglarni "aqliy hujum" strategiyasi yordamida o'eharchilikka qarshikurashish mavzusida muammoning echimi ro'yxatini tuzish (ravonlik), so'ngberilgan g'oyalarni bir necha kategoriyalarga bo'lib chiqish (moslashuvchanlik)va ulardan qay biri o'ziga xos (originallik) g'oya ekanligini

aniqlash bo'lajakpedagoglarda shakllangan ko'nikmalarning bir paytning o'zida qo'llanilishiniko'rsatib beradi.

Moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shallantirishda bo'lajak pedagoglar qiziqishlari va madaniy qarashlaridan foydalani shularda originallikni tarbiyalashda katta samara beradi. Mayn shahrida istiqomat qiluvchi o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi mazkur strategiyani o'quvchilarda o'ziga xos (original) tarzda fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda qo'llagan. Uravonlik va moslashuvchanlik bo'yicha mashq va o'yinlarni o'z ichiga olgan electron dastur ishlab chiqqan. O'quvchilar berilgan vazifalarni PowerPoint prezentsatsiyasi, portfolio yoki boshqa shaklda bajarish tanloviga ega edilar. Bo'lajak pedagoglar natijalarni qo'shiq PowerPoint prezentsatsiyasi shaklida taqdim etdilar. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan keyinchalik o'qituvchi va o'quvchilar orasidamashhur bo'lib, u vazifa mazmunini chuqur anglash va natijalarni originaltarzda bajarishi ko'nikmalarini shakllantirishda o'z samarasini ko'rsatdi.

Yaratuvchanlik. "Yaratuvchanlik" tushunchasi boshqa bir g'oyani rivojlantirish va uni kengaytirishga asoslanadi, ya'ni berilgan vazifalar anu shu g'oya asosida bajariladi. Bir g'oyani kengaytirish uchun bo'lajak pedagoglar mavzu, muammo yoki vazifa mazmunini chuqur anglab etishlari va talab etilgan darajada bilimga ega bo'lishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglarga "yaratuvchanlik" tushunchasi haqida gapirganda, ularga hayotiy misollar keltirish maqsadga muvofiqdir (masalan, kompyuterlar, rekonstruktsiya, kino va adabiy asarlar, ilmiy tushunchalar va nazariyalar, insonlar hayotida yuzaga keladigan muammolarni echish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar). Bo'lajak pedagoglarda ishlab chiqish ko'nikmasini shakllantirishda adabiy yoki asarlarni bir-biri bilan taqqoslash (ba'zan ko'p betli asarlar kichkina kam betli asarlar kabi ko'p ma'lumot bermaydi) mashqi katta samara beradi".

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish yo'llari

Kreativ fikrlash – bu innovatsion (yangi, novator, original, nostonart, noodatiy va hokazo...) va samarali (amaliy, natijaviy, tejamlı, optimal va hokazo)

yechimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali ishtirot etish qobiliyatidir.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsan siz nima deb o'ylaysiz: Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlashga undash jarayonida mazkur yo'llardan qay tartibda foydalanish kutilgan natijalarni kafolatlaydi. Bu o'rinda Patti Drapeau quyidagi maslahatni beradi: "Birmanzildan ikkinchi manzilga borish uchun biz ikki va undan ko'p yo'nalishlarnibosib o'tamiz. Bu fikr quyida bilirladigan ko'rsatmalarga ham taalluqlidir.O'qituvchi dars jarayonida bir yoki bir nechta (yuqorida keltirigan) yo'llardan foydalanishi mumkin.

O'qituvchi kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi fe'llarni (1-yo'l) qo'llashga qaror qilsa, u bevosita kreativ muammolarni hal etish(3-yo'l) ustida ish olib borayotgan. Bo'lajak pedagoglarni kreativ fikrlash strategiyalari (2-yo'l)dan foydalanishga ham samarali jalb etadi. Dars esa kreativ mahsulotni (4-yo'l) ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Kreativ fikrlash jarayoninimohiyatini yorituvchi xarita o'qituvchilarga dars jarayonida namoyon bo'ladigankreativlik darajasi, turini aniqlashga yordam beradi. Ko'p holatlarda o'qituvchilar hamda bo'lajak pedagoglarning o'zları ham shunday savolga duch kelishadi: kreativ fikrlash jarayonining odat sifatida namoyon bo'lishiga erishish mumkinmi? Bu o'rinda Patti Drapeau shunay fikrlarni ilgari suradi: "Miya tadqiqotlari kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish usullari va uni qanday qilib odatga aylantirish mumkinligini tushunish imkonini beradi.

Kreativlik miyaning old (g'oyalar yuzaga keladigan) va chekka (tahlil qilish) sohalarining o'zaro muvofiqlikda ishlashi va dopamin (kishining o'zini yaxshi his etishiga yordam beruvchi) moddasining ishlab chiqarilishi natijasida ro'y beradi.

Ta'lim olish miyada kichik burmalarining paydo bo'lishiga olib keladi hamda miyaning faol ishlashi natijasida bu jarayonkuchayadi.

Inson miyasi obraz, bashorat, xis tuyg'u, emotsiya va ma'no boy ma'lumotlar olishni ma'qul ko'radi.

"Agarda ma'lumot hech qanay hissiyot vafikriy jarayonlardan holi bo'lsa, u miyada saqlanmaydi". Biroq, kreativ fikrlash miyada uning "ta'lim olish va o'rganish metodlariga zidbo'lgan yangi usullarni qo'llash va noan'anaviy, orginal g'oyalarning ishlabchiqilishini taqozo etadi.



Kreativ fikrlash ko'nikmasinimashq qildirish natijasida bo'lajak pedagoglar faqatgina o'rnatilgan aloqalargatayaniqina qolmay, balki miyada yangi, ma'noga boy aloqalarni o'rnatish yangi g'oyalarni ishlab chiqish va yangicha fikrlashga moyil bo'ladilar. Doimiy ravishda olib borilgan mashqlar natijasida yangicha kreativ fikrlash odatiy va avtomatik xarakterga ega bo'ladi. Inson miyasi doimo to'g'ri ishlashga odatlangan, ya'ni, miya uchun faqat birgina to'g'ri javob mavjud bo'ladi.

Vaholanki, bu kreativlik emas. Kreativlik – bo'lajak pedagoglarning o'z qarashlarini himoya qilish jarayonida barcha javoblar to'g'ri bo'lishi mumkin degani. Kreativlik muhitiga singib ketish sanaladi. Shu sababli kreativ fikrlashni odatga aylantirish uchun bo'lajak pedagoglar mazkur jarayonga ishonch bilan qaray olishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va bo'lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari

baxolarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish xissi mavjud bo'lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi. Kreativlikni odatga aylantirish, bo'lajak pedagoglarning o'qishdagি muvafaqqiyat va o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni oshirish faqtgina kreativ fikrlashni muvofiq ravishda qo'llash orqali va sog'lom muhitdagina erishish mumkin".

Kreativlikni baholash



Xorijliy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning, ayniqsa, o'qituvchining kreativligi boshqa (talaba)larni ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi. "Kreativlik yuqumlilik xususiyatiga egadir; kreativ bo'lish uchun kishiko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi va hamisha izlanishda bo'lislilozim.

Har qanday konikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Bu bo'lajak pedagoglarga ham taalluqli bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak pedagoglarnoodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq, bo'lajak pedagoglarnruhlantirish va kreativ bo'ishga undash o'qituvchining qay darajada malakaliekianligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativliknazziyachilarining ishlari bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmasinshakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak pedagoglarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchiningyondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda o'qituvchi alohida o'rinn tutadi. Bu jarayonda o'qituvchining roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Pannels va Klakstonlar qayd etganlaridek, muhit kreativlikni shakllantirishga ta'sir etadi, boshqa tadqiqotchi Piirtoningfikricha esa, kreativlik tavakkal qilishni talab etadi. Vaholanki, o'qituvchisinf bo'lajak pedagoglar o'zini erkin sezaladigan va o'z fikrlari, g'oyalaribilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak pedagoglar kreativliksinf xonasida o'z g'oya va fikrlarini turli yo'llar bilan ifoda etishlari mumkinva ular buni qadrlamoqlari lozim. Bo'lajak pedagoglar miyada yuz berayotganjarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak.


O'qituvchi bo'lajak pedagoglardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali

qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining bo'lajak pedagoglar berayotgan kreativ g'oyalariiga nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'limgan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi o'qituvchi-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak pedagoglar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish

| Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish | |
|--|---|
| Bo'lajak pedagoglarni ... | <ul style="list-style-type: none"> - qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash |
| Bo'lajak pedagoglarga ... | <ul style="list-style-type: none"> - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'il yo'riq ko'rsatish |
| Bo'lajak pedagoglarni ... | <ul style="list-style-type: none"> - suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib borish |
| Bo'lajak pedagoglar ... | <ul style="list-style-type: none"> - o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhdha ishlay olishlari; - hissий jihatdan erkin va ijobjiy fikrlarga ega bo'lishlari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish |


Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishgato'sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarnibartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim.



Quyidagi omillar shaxsda kreativlknirivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash

Kreativ muhitda o'qituvchi bo'lajak pedagoglar diqqat -e tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg'otuvchi ma'lumot, bo'lajak pedagoglarni o'ziga jalb etib, ularda o'qishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.



Olib borilgan miya taqiqotlari shuni ko'sratdiki, yangilik hamisha miyani faollashtiradi. O'qituvchi bo'lajak pedagoglarni yangi ma'lumot va manbalar bilan ta'minlaganda yoki yangi strategiyalarni q'llaganda, miya "uyg'onadi" va e'tabor qaratadi. Masalan, biror bir adabiy asar qahramoni yoki faniy shaxsga o'xshab kiyinish, faniy buyum yoki zamonaviy predmetlardan foydalanish, musiqa eshittirish, latifalar aytish, sinf xonasidagi jihozlar o'rnni almashтирish, o'yinlar o'ynash (bu o'rta maktab o'quvchilari va oily ta'lim muassasalari bo'lajak pedagoglariga ham birdek taalluqli), dars shaklini o'zgartirish. Kreativ muhitda o'qituvchi bo'lajak pedagoglarga tez-tez tanlash imkonini beradi.

Tanlov kreativlikni shakllantirishda muhimdir, bo'lajak pedagoglarni ruhlantirib, ularga o'qishni nazorat qilish imkonini beribgina qolmay, balki huquq va imkoniyatlarini kengaytiradi. Tanlov huquqina faqat o'qituvchi-talaba munosabatini yaxshilash, balki har ikki tarafningham individualligini ifodalashga zamin yaratadi. Tanlov huquqi faqat bir tomonlama bo'lishi ham mumkin, ya'ni tanlov talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi va yakuniy natija ikki yoki undan ko'p shaklda taqdim etilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida ham o'qituvchilar bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ularning jamoa bo'lib, kichik yoki katta guruhlarda ishlashlari uchun zarat shart-sharoitni yaratib bera olishlari zarur. Zero, katta va kichik guruhlarda ishlash jarayonida bildirilgan har qanday fikrni kreativ jihatdan rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. "O'qituvchi kreativlik darslarida jamoat uyg'usining ahamiyatini anglalagan holda, doimiy ravishda guruhlarni o'zgartirib, bo'lajak pedagoglarda jamoa bo'lib ishlash, boshqalar qobiliyatini va mahoratini hurmat qilish ko'nikmasi shakllantiradi. Vaholanki, yakka tartibda ishlash ma'lum vaziyatlarda samara bersa, kreativlik dars tarida kichik guruhlarda ishlash maqsadga muvofiqdir, chunki kreativlik ko'nikmasi ijtimoiy fenomendir; Soyerning fikriga ko'ra, kreativ qarashlar jamoa bo'lib ishlash jarayonida va kreativ hamkorlik natijasida shakllanadi.


Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatining ustuvor yo'nalishi. muloqotning dialogic usullariga, yechimni birgalikda izlashga va turli ijodiy faoliyatga beriladi. Bularning barchasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni, vaziyat va tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish asosida murakkab masalalarni yechishni, muqobil fikrlarni topishni, puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni, muhokamalarda qatnashishni o'rganadilar. Buning uchun darslar juftlik va guruh usullari asosida tashkil etiladi, ilmiy-tadqiqot loyihalari, rolli o'yinlar qo'llaniladi.

O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lish mezonlari:

- Bo'lajak pedagoglarni **ma'lum sohadagi qobiliyatlariga** ko'ra kichik guruhlarga bo'lish; Bo'lajak pedagoglarni bunday qobiliyatiga ko'ra bo'lish aslo kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq bo'lmasligi lozim. Bunday guruhlarda Bo'lajak pedagoglar erkin harakat qila olishlari va vaqt kelsa boshqa guruhga o'tishga tayyor bo'lishlari lozim;

- **hamkorlik guruhlari** bo'lajak pedagoglarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi; bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega bo'lajak

pedagoglardan iborat bo'lishi ham mumkin. Ko'p hollarda bunday guruhdagi Bo'lajak pedagoglar ma'lum bir rol, ya'ni mas'uliyatni o'z elkalariga oladilar. Mazkur guruhn shakllantirishda asosiy e'tibor talabaning kognitiv hohishistalariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;



- **moslashuvchan guruhi** bo'lajak pedagoglarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va hohish-istalari asosida tashki etiladi. Guruhn qiziqishlari o'zgarsa, shunga ko'ra uning a'zolari ham o'zgaradi. Bunday guruh Bo'lajak pedagoglarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi bo'lajak pedagoglar muvafaqqiyatga erishishlari uchun ularni qiziqarli, murakkab vazifalar va aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlaydi. Ma'lum vazifani bajarish jarayonida bo'lajak pedagoglar ishga "berilib" ketishlari sababliular vaqt tushunchasini unutib qo'yadilar.

Vaholanki, bo'lajak pedagoglar maktab sharoitida kamdan-kam bunday holatgatushsalarda, o'qituvchilar bunday muhitni yaratishga intilishlari lozim.

Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish

Bo'lajak pedagoglarni... - qiziqarli; - murakkab vazifalar; - aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash;

Bo'lajak pedagoglarga... - kreativlik muvozanatsizlik xissini yuzaga keltirishini anglatish; - bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish; - kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berish; - "qutqarib" qolish emas, balki yo'l yo'riq ko'rsatish;

Bo'lajak pedagoglarni... - suhbatlar orqali rag'batlantirish; - konstruktiv sharhlar bilan ta'minlash; - yangi ko'rsatmalar bilan tanishtirib boorish;

Bo'lajak pedagoglar... - o'zlarida kreativlikning boshqa turlarini ham rivojlantira olishlari; - guruhda ishlay olishlari; - hissiy jihatdan erkin va ijobji fikirlarga ega bo'lislari uchun poydevor bo'ladigan muhitni yaratish.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

"Men qanday o'qituvchi bo'lishni xohlayman?»

O'qituvchining ijodkorligini shakllantirish asosan ijodiy kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Talabalarga savollarga samimiy javob beradigan anketa taklif etiladi. Javoblar e'lon qilinmaydi. Anketa ochiq xarakterga ega va javobning erkin shaklini ta'minlaydi.

Savollar.

1. Maktabda ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar bormi? Nima uchun?
2. Kasbiy faoliyatningizga yangi narsalarni qo'shishni xohlaysizmi?
3. Psixologik va pedagogik adabiyotlarning yangiliklarini o'qiyapsizmi?
4. Agar siz maktabda ishlasangiz, qanday innovatsion dasturni o'rganishni xohlaysiz?
5. Yangi dasturlarni ishlab chiqish, yangi darsliklar ustida ishlash kabi darslaringizga o'zgartirish kiritishni xohlaysizmi?
6. Sinfda iloji boricha ko'proq ijodiy o'quvchilar bo'lismeni xohlaysizmi?
7. Vaziyatni tasavvur qiling. Siz bosh o'qituvchi ishtirot etgan qiziqarli, sizningcha, darsdan tashqari tadbirni ishlab chiqdingiz va o'tkazdingiz. Siz o'zingizdan mamnun edingiz, ta'lim oluvchilar buni yaxshi ko'rishdi. Sizning

ishingizni tahlil qilayotganda, bosh o'qituvchi sizning tadbiringiz unga yoqmasligini, ta'lim oluvchilar juda ko'p shovqin qilayotganini, topshiriqlarni bajarayotganini, sinfda yurganini va hokazolarni aytdi.

8. Quyidagi vaziyatni tasavvur qiling: maktab ma'muriyati sizga o'qituvchilar kengashida nutq so'zlashni va topilmalaringizni hamkasblaringiz bilan bo'lismishni taklif qildi. O'qituvchilar kengashidan keyin katta hamkaslar sizning oldingizga kelib: "Tajriba almashish siz uchun erta emasmi?" Keyingi safar gapirishga rozi bo'lasizmi? Qanday qilib qilasiz?

9. Quyidagi vaziyatni tasavvur qiling: siz yangi darsni ishlab chiqdingiz, ammo uni amalga oshirgandan so'ng, ko'p narsa ishlanaganligini, ba'zi g'oyalaringiz samarasiz ekanligini angladингiz. Keyingi safar tajriba o'tkazasizmi?

10. Agar siz bosh o'qituvchi, hamkaslar ishtirot etadigan ochiq darsni o'tkazishingiz kerak bo'lsa, siz yangi dars ishlab chiqishga yoki tayyor uslubiy ishlanmalardan foydalanishga intilasizmi?

11. Iltimos, siz bilgan innovatsion o'qituvchilarni eslaysizmi?

12. Siz bilgan o'quv dasturlari qanday?

13. Iltimos, quyidagi vaziyat bilan tanishing: maktabda amalda, siz sinfda sizga va o'zingizga darslarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan o'qituvchi sizga barcha mavzular batafsil bayon etilgan uslubiy ishlanmalarni berdi. Sizningcha, siz ushbu tavsiyalardan doimiy ravishda foydalanasizmi yoki dars tizimingizni ishlab chiqasizmi?

14. Bunday vaziyatni tasavvur qiling: sizning sinfingizda doimiy ravishda savollar beradigan (dars mavzusi bo'yicha ham, yo'q) o'quvchi bor, ko'pincha sizning hikoyangizni to'ldiradi. Iltimos, ushbu talabaga bo'lgan munosabatingizni bildiring. U bilan qanday munosabatda bo'lisingizni taxmin qiling.

